

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 811,512.133:347.61:398.91

TURAYEVA JUMAGULNING

OILA NUTQIDA MAQOLLARNING LINGVISTIK
XUSUSIYATLARI

70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

f.f.f.d. (PhD), dots. Z.Umurqulov

Termiz – 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 2-apreldagi №54-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manziling QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (44 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ **f.f.f.d. (PhD), dots. Z.Umurqulov**

Kafedra mudiri: _____ **f.f.f.d. (PhD) N.Amonturdiyev**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____ **(PhD) A. Narbayev**

**70230101– Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti Turayeva
Jumagulning “Oila nutqida maqollarning lingvistik xususiyatlari”
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**

ANNOTATSIYASI

Tadqiqot obyektlari: sifatida oila nutqiga xos bo‘lgan frazeologik birliklar va ularning lingvistik tadqiqi belgilandi.

Ishning maqsadi: O‘zbek oilalari nutqiga xos bo‘lgan frazeologik birliklarni lingvokulturologik, etnolingvistik, stilistik va gender lingvistikasi nuqtai nazaridan tahlil etish va o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish.

Tadqiqot metodlari: Asosan, lingvokulturologik, sotsiolingvistik va qiyosiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- O‘zbek oilalari nutqida qo‘llaniluvchi frazeologik birliklarning individualligini ta’minlovchi vositalar leksik-semantik jihatdan tahlil qilindi;

- O‘zbek oilalari nutqida qo‘llaniluvchi frazeologik birliklar belgilandi va ularni lingvokulturologik jihatdan tahlil etildi;

- O‘zbek oilalari nutqida qo‘llaniluvchi frazeologik birliklar fonetik, leksik-semantik, sintaktik xususiyatlari tahlili asosida idiolektik farqlar tasniflandi.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari lingvokulturologiya va frazeologiyaga oid izlanishlarni nazariy ma’lumotlar bilan boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, lingvokulturologiya, frazeologiya va gender tilshunoslikning tahlillari jarayonida foydalanish mumkin. To‘plangan dalillar, amalga oshirilgan tahlillar lingvokulturologik tahlilni o‘rganish uchun muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

Tadbiq etish darajasi: Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, lingvokulturologiya, frazeologiya va gender tilshunoslikda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Qo‘llanilish sohasi: lingvokulturologiya, frazeologiya va gender tilshunoslikda

Master's thesis on "Linguistic features of proverbs in family speech".

ANNOTATION

Objects of research: phraseological units characteristic of family speech and their linguistic research were determined.

The purpose of the work: to analyze the phraseological units characteristic of the speech of Uzbek families from the point of view of linguocultural, ethnolinguistic, stylistic and gender linguistics and to show their peculiarities.

Research methods: Mainly, linguocultural, sociolinguistic and comparative analysis and classification methods were widely used.

The results obtained and their novelty:

- The tools that ensure the individuality of phraseological units used in the speech of Uzbek families were analyzed lexically-semantically;
- Phraseological units used in the speech of Uzbek families were determined and analyzed from a linguocultural point of view;
- Based on the analysis of phonetic, lexical-semantic, syntactic features of phraseological units used in the speech of Uzbek families, idiolectic differences were classified.

Practical significance: The results of the research will enrich the research on linguocultural and phraseology with theoretical information. The practical importance of the research is that the results of the research can be used in the analysis of linguistics, linguistic culture, phraseology and gender linguistics. Collected evidence, performed analyzes serve as important material for studying linguistic and cultural analysis.

Application level: The practical value of the research is that the results of the research can be used as a theoretical resource in linguistics, linguoculturalism, phraseology and gender linguistics.

Field of application: linguistics, linguoculturalism, phraseology and gender linguistics.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. OILA NUTQI VA UNDA MAQOLLAR QO‘LLANILISHINING LINGVISTIK TADQIQI	
1.1-§. Jahon tilshunosligida oila nutqi va maqollarning o‘rganilishi	
1.2-§. O‘zbek tilshunosligida maqollar tadqiqi.....	
1.3-§. Oila nutqida qo‘llanadigan maqollarning lingvistik jihatlari	
I bobga doir xulosalar.....	
II BOB. O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING OILA A‘ZOLARI NUTQIDA QO‘LLANILISHI	
2.1-§. Oilada maqollarning yosh jihatdan qo‘llanilishi.....	
2.2-§. Oilada maqollarning gender (jins) jihatdan qo‘llanilishi	
2.3-§. Oilada maqollarning nutq vaziyatiga ko‘ra qo‘llanilishi	
II bobga doir xulosalar.....	
III BOB. “OILA” TUSHUNCHASIGA OID MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	
3.1-§. Turkiy xalqlar madaniyatida “oila” haqidagi maqollar	
3.2-§. Ingliz va o‘zbek tillarida “oila” tushunchasiga oid maqollarning lingvokulturologik tahlili	
III bobga doir xulosalar.....	
XULOSA	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Hozirgi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda ulkan o‘zgarishlar, tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda har bir shaxs buyuk o‘tmishimizni yaxshi bilgan holda kelajagimiz ravnaqi uchun eltadigan eng oqilona yo‘llardan borish talab qilinadi.

Mashhur faylasuf V.Gyugo aytganidek, “oila jamiyatning duru gavharidir”. Shuningdek, “Oila tabiatning shox asarlaridan biridir”. Xuddi shox asar hisoblangan oilani o‘rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etib borish bugungi kunning ham eng dolzarb masalalaridan bo‘lib, hozirgi davrda mustaqil O‘zbekistonda bu borada juda katta ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar olib borilmoqda. “Oila” haqida gapirar ekanmiz, avvalom bor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday inson bo‘lib yetishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini deb bilamiz. Har bir oilaning kelajagi va istiqboli, uning mustahkamligiga, sog‘lom turmush tarziga bog‘liqdir. Bu o‘z navbatida xalqning, jamiyatning istiqbolini belgilaydi. Shu tufayli oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari mamlakat, jamiyat manfaati yo‘lida amalga oshiriladigan eng muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

“Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir, hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deyilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida¹. 1998-yil “Oila yili”da “Oila kodeksining” qabul qilingan va bu hujjat “Oila” so‘zining “Nikoh” so‘ziga nisbatan kengroq ma’no anglatishi hisobga olinib, amalda qo‘llanib kelingan “Oila va nikoh” kodeksi yangilangan va to‘ldirilingan. “Oila” kodeksi 238-moddadan tarkib topgan sakkiz bo‘limdan iborat².

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2016

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: Adolat, 2018

“Umumiy qoidalar” deb ataluvchi bo‘limning sakkiz moddasi “oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an‘analarining qo‘llanishi” haqida bo‘lib, jumladan, bu masala shunday ifodalangan: “Qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli №2 2022 136 normalar bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tamoyillariga zid bo‘lmagan mahalliy urf – odat va an‘analar qo‘llaniladi”. Bunda o‘zbek xalqida kelin - kuyovga eskicha nikoh o‘qitish, shuningdek Respublikamizda yashovchi boshqa xalqlar, jumladan, ruslarda cherkovda nikoh o‘qitish, turklarda esa nikoh to‘yidan keyin hurmat belgisi sifatida kelin-kuyovni ma‘lum muddat davomida oila a‘zolari bilan gaplashmay yurishlari singari an‘anaviy udumlar ko‘zda tutilgan. “Oila ham ijtimoiy institut, ham kichik guruh ekanligidan kelib chiqib, unga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: oila - bu uyushgan ijtimoiy guruh bo‘lib, uning a‘zolari umumiy hayot, nikoh yoki qarindoshlik munosabatlari bilan, shuningdek, jamiyatning jismoniy ehtiyojlari tufayli ma‘naviy javobgarlik bilan bog‘lanadi”³.

“...Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma‘rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”⁴.

Tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashash va ijtimoiy taraqqiyot sharoitini o‘rganuvchi sohasi sifatida yuzaga kelgan, sotsiologlar va tilshunoslarni tobora bir-biriga yaqinlashtirayotgan zamonaviy sotsiolingvistika shu fan sohasidagi o‘ta nazariylik, noaniqlik va aynan shuning oqibatida yuzaga kelayotgan ayrim nuqsonlarni ko‘rsatib bermoqda. Zero, an‘anaviy tilshunoslik tilda har biri o‘ziga xos takrorlanmas olam bo‘lgan insonlar muloqot jarayonining ruhiy, milliy, ijtimoiy, hududiy xususiyatlariga e‘tibor qaratmadi. Bunga muloqot jarayonining

³ Ganieva M.X, Latipova N.M., Karamyan M. Ijtimoiy ish asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2010

⁴ Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга мурожаатномасидан. “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил, 25 январь сони.

o‘ta murakkab va serqirra ekanligini va xuddi shuning uchun ham alohida bir fanning o‘zi bu muammoni yaxlit tadqiq etishga ojizlik qilganligini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Shuning uchun bo‘lsa kerak, asrimiz boshlarida aniq va tabiiy fanlarning, asrimizning ikkinchi yarmidan boshlab esa ijtimoiy fanlarning ham muayyan jabhada o‘zaro yaqinlashuvi kuzatilmoqda. Natijada, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika kabi “tutash” fanlar, etnopsixolingvistika, sotsiopsixolingvis-tika kabi yangi soha va yo‘nalishlar yuzaga keldiki, inson nutqini aynan fanlarning mana shunday *tutash nuqtasida* tadqiq etish o‘ta murakkab jarayon bo‘lgan muloqotning asl mohiyatini, uning o‘ziga xos.

Oila nutqida maqollarni lingvistik jihatdan tadqiq etishga doir ishlar o‘zbek tilshunosligida hali amalga oshirilmagan, bu esa tadqiqot mavzuimizning dolzarbligini ifoda etadi.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida oila nutqida qo‘llaniluvchi maqollarning milliylikimizga xos individuallikni ta‘minlovchi omillar tadqiq etildi.

Muammoning o‘rganilish darajasi: Maqol va matallarni qiyosiy-tipologik xususiyatlariga oid muammolar I.Begmurodov, R.A.Latipova, I.K.Mirzayev, Y.V.Ivanova, B.T.Kasharokov, V.V.Pavlov, Z.A.Yusupova, Y.A.Osheva, L.A.Babitova, O.Sh.Igbolov, M.Temirova, R.U.Majidova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu kabi ilmiy ishlar, maqol va matallar tadqiqotning nazariy jihatdan mustahkam asosga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunoslari X.Abdurahmonov, G.N.Sindibayeva, N.B.Saparova, P.U.Bakirov, M.Djusupov, K.Y.Alibekova, Sh.Majitayeva, B.Jo‘rayeva, D.S.Turdaliyevalar maqol va matallarining qiyosiy, g‘oyaviy-badiiy, leksik, leksik-stilistik, grammatik tahliliga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ingliz va o‘zbek tillari bo‘yicha qiyosiy-tipologik tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri J.Bo‘ronovdir. Olim ingliz va o‘zbek tillari bir-biridan genealogik, tipologik, areal va statistik jihatlardan farq qilishini ko‘rsatib o‘tadi. O‘.Q.Yusupov, A.A.Abduazizov, F.M.Usmanov, S.M.Zokirova, Sh.M.Jalolova, N.E.Abdullayeva, A.D.Paizbekova, Z.R.Gulyamova, N.M.Jalgasovlar ishlarida ingliz va o‘zbek

tillari turli aspektlarda, jumladan paremiologiya sohasi tadqiq qilingan. Sh.S.Ashurov, N.N.Suvonova, I.Sh.Ubaydullayeva, U.Xalbayevalar izlanishlarida inglizcha va o‘zbekcha maqollar qisman ko‘rib chiqilgan. M.A.Terpak, Z.A.Biktagirova, Y.A.Kostrubina, A.Raxmat, M.M.Imomzoda, S.A.Ruziyeva, V.A.Detkova kabi mutaxassislar turli tillardagi “oila” tushunchasi va oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan paremiyalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqot obyekti va predmeti sifatida oila nutqiga xos bo‘lgan frazeologik birliklar va ularning lingvistik tadqiqi belgilandi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: O‘zbek oilalari nutqiga xos bo‘lgan frazeologik birliklarni lingvokulturologik, etnolingvistik, stilistik va gender lingvistikasi nuqtai nazaridan tahlil etish va o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish.

Tadqiqot maqsadini amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

- oila nutqida qo‘llaniluvchi maqollarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganishning dolzarbligini asoslash;
- oila nutqida qo‘llaniluvchi maqollarni o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish holatini ilmiy-tanqidiy baholash;
- oila nutqida qo‘llaniluvchi maqollarni qo‘llanilgan o‘ziga xosliklarini belgilash va ularni lingvistik jihatdan tahlil etish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- O‘zbek oilalari nutqida qo‘llaniluvchi frazeologik birliklarning individualligini ta’minlovchi vositalar leksik-semantik jihatdan tahlil qilindi;
- O‘zbek oilalari nutqida qo‘llaniluvchi frazeologik birliklar belgilandi va ularni lingvokulturologik jihatdan tahlil etildi;
- O‘zbek oilalari nutqida qo‘llaniluvchi frazeologik birliklar fonetik, leksik-semantik, sintaktik xususiyatlari tahlili asosida idiolektik farqlar tasniflandi;
- Oila nutqida qo‘llaniluvchi maqollarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganishning dolzarbligini asoslash.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Ilmiy tadqiqot ishida o'zbek oilalari nutqida qo'llaniluvchi frazeologik birliklar lingvokulturologik xususiyatlari yoritildi va mazkur nutqqa xos bo'lgan vositalar haqida aniq xulosalar berildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tavsifiy, semantik tahlil va qiyosiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari lingvokulturologiya va frazeologiyaga oid izlanishlarni nazariy ma'lumotlar bilan boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, lingvokulturologiya, frazeologiya va gender tilshunoslikning tahlillari jarayonida foydalanish mumkin. To'plangan dalillar, amalga oshirilgan tahlillar lingvokulturologik tahlilni o'rganish uchun muhim material bo'lib xizmat qiladi.

Ishning tuzilmasi tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, sakkiz fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 73 sahifadan iborat.

I BOB. OILA NUTQI VA UNDA MAQOLLAR QO‘LLANILISHINING LINGVISTIK TADQIQI

1.1-§. Jahon tilshunosligida oila nutqi va maqollarning o‘rganilishi

Jahon tilshunosligida maqollarning lisoniy mavqei, shakllanish manbalari, etimologiyasini ochib berish, ularning muayyan bir xalq hayoti, dunyoqarashi, an’analari, urf-odatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatish va bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish masalasiga alohida diqqat qaratilmoqda. Natijada paremiologik birlik sifatida maqolning nafaqat folklorshunoslik ilmi uchun, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham turli vazifalarni bajarishi, struktur-diskursiv jihatlarini, mental va kognitiv xususiyatlari bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Ayni paytda mazkur lisoniy birliklarni kognitiv, psixologik, lingvomadaniy, lingvopragmatik aspektlarda tadqiq etish, ularning struktur-semantik, badiiy-estetik jihatlarini o‘rganish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Dunyo tilshunosligida frazeologik hamda paremiologik birliklarning turli aspektlari: struktur-semantik, lingvokulturologik, kognitiv xususiyatlari, maqolning idiomalar, ibora, aforizm va matallar bilan munosabati, lisoniy o‘rni, diaxron va sinxron holati hamda nutqdagi ko‘rinishlari haqida qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Shunday bo‘lsa-da, maqollarning intralingvistik va ekstralingvistik omillar asosida shakllanishi borasida chuqur tadqiq etilishi lozim bo‘lgan jihatlar ham mavjud. Shu ma’noda maqolning boshqa paremik va barqaror birliklarga munosabati masalasiga oydinlik kiritish, maqol paydo bo‘lishining lingvistik asoslarini, kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini ochib berish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

O‘zbek tilshunosligidagi so‘nggi yillar, ya’ni milliy qadriyatlarning tiklanish davri so‘zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo‘lgan o‘zbek adabiy tilini chuqur egallashni; fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta’sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Shoir va yozuvchi, notiq va fasih, qari va yosh borki, aytilayotgan fikrini asoslamoqchi yoki mustahkamlamoqchi bo‘lsa, albatta,

maqolga murojaat qiladi. Maqol vositasida ifodalangan fikr, berilgan javobni tilning hech bir vositasi almashtira olmaydi yoki maqol darajasida asoslab berolmaydi. Biroq hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida maqollarning lisoniy mavqei, shakllanish manbalari, ular paydo bo‘lishining intralingvistik va ekstralingvistik omillari alohida tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. “Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biri”⁵ sifatida belgilangan ekan, bu maqollarga oid tadqiqotlarning ham hozirgi vaqtda dolzarb va muhimligini yana bir karra isbotlaydi.

Maqol va iboralarni o‘rganishga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, (University of Oxford (Buyuk Britaniya), Grasefield University, Universitat Trier (Germaniya), University of Verona (Italiya), Indiana University, University of California (AQSH), University of Santiago (Chili), La Sierra University (Braziliya), The University of Sydney (Avstraliya), Finish Academy of Science (Finlyandiya), Universitas Tartuensis (Estoniya), Czech Academy of Sciences (Chexiya), European Phraseological Societu, Moskovskiy gosudarstvenniy universitet, Sankt-Peterburgskiy gosudarstvenniy universitet, Moskovskiy gosudarstvenniy lingvistikcheskiy universitet, Moskovskiy institut lingvistiki (Rossiya)da olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida maqollar qo‘llanilishining u yoki bu aspektini o‘rganish bo‘yicha quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: maqol va iboralarning struktur-semantik jihatlari ochib berilgan (Oksford universiteti, Buyuk Britaniya; Finlyandiya Fanlar akademiyasi, Finlyandiya); badiiy-estetik vazifalari yoritilgan (Estoniya fanlar akademiyasi, Estoniya; Saarland universiteti, Germaniya; Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari instituti, Novgorod davlat pedagogika instituti, Rossiya); maqol va iboralardagi baynalmilal hamda milliy xususiyatlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan (Ernst Morits Arndt nomidagi Graysfald universiteti,

⁵Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи”, 2018 йил 29 декабрь. – Б. 3.

Germaniya; Moskva davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi Rus tili instituti, Sankt-Peterburg Davlat universiteti, Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti, Rossiya; Qozog‘iston universiteti, Qozog‘iston); maqol hamda iboralarga xos mental xususiyatlar asoslab berilgan (Indiana universiteti, Vermont universiteti, Kaliforniya universiteti, AQSH); paremalarning lingvopragmatik tomonlari o‘rganilgan (Filologiya, jurnalistika va madaniyatlararo muloqot instituti, Belgrad davlat milliy tadqiqot universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi A.M.Gorkiy nomidagi xalqaro adabiyot instituti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi Ijtimoiy fanlar bo‘yicha ilmiy axborot instituti, Rossiya); maqollarning kognitiv xususiyatlari haqidagi qarashlar bayon etilgan (Qozon davlat universiteti, Belgrad davlat universiteti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya); maqollarning lingvokulturologik jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari bajarilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zR FA huzuridagi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O‘zbekiston).

Xorij tilshunosligida faqatgina maqolning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha esa quyidagi asosiy yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda:

- maqollarning diaxron va sinxron holati hamda ularning nutqdagi ko‘rinishlarini aniqlash;
- maqollarni lingvokulturologik, lingvopragmatik, kognitiv aspektda tadqiq etish;
- bir necha tillar fondidagi maqollarni qiyosiy-tipologik o‘rganish;
- maqollarni psixologik aspektda tahlilga tortish;
- maqollarni didaktik va metodik maqsadlarda tavsiflash.

Oila haqida Prezidentimiz shunday degan edilar: “Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo‘lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi. O‘sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko‘rish hammamizga nasib etsin!”.

Oila kishilarning nikoh yoki qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruh. "Jamiyat" va "Oila" tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo'lmasligi hamda o'z navbatida oilaning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko'rinadi. Oila hamda jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar iki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Albatta buni barchasini hayotiy tajribalar asosida ko'rishimiz mumkin.

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik, badiiy ham falsafiy asarlarning lingvistik tahlili shuni ko'rsatadiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, karakter va dunyoqarsh shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

1.2-§. O'zbek tilshunosligida maqollar tadqiqi

Hozirgi bosqichda tillarning maqollar majmuasini ilmiy o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Maqollar faqat til materiallaridangina yaratilgan emas, balki tilning beqiyos qudrati tufayli vujudga kelgandir. Bu holat nutqda keng qo'llanib kelinayotgan maqollarni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni talab etadi.

Borliqdagi va tilimizdagi har bir hodisa kabi maqollar ham serqirra bo'lib, o'zining xususiyatlari bilan tilimizdagi turli birliklarga goh yaqinlashib, gohida ulardan uzoqlashib, alohidalikni tashkil etadi. Mana shuning uchun ham ular tilimizda va fanimizda o'ziga xos hodisa sifatida ajratiladi, maqol deb xususiy nom oladi.

Hozirgi kunda fandagi munozarali masalalardan biri maqollarning lisoniy mavqei, uning xalq ogʻzaki ijodining boshqa janrlari va lisoniy birliklardan farqli jihatlarini aniqlashtirish muammosidir. Chunki qaysidir birlik haqida fikr yuritilar ekan, avvalo, uning chegarasi, qamrov doirasini aniqlash kerak boʻladi. Maqolning asl tabiati esa unga yondosh boʻlgan hodisalar bilan munosabatlari (bogʻlanishlari, zidlanishlari, oʻxshashliklari, farqlari va h.k.)da ochilishi va uqilishi mumkin.

Fanda maqollarni xalq ogʻzaki ijodi, etnografiya, tilshunoslik obyekti sifatida tekshirish, idioma-ibora-maqol tizimida ilmiy-nazariy jihatdan oʻrganish uzoq tarixga ega. Tilshunoslikda mazkur yoʻnalish boʻyicha tadqiqotlar olib borishda muayyan natijalarga erishildi va bunda maqol, asosan, turgʻun birikma, aniqrogʻi ibora tarkibida oʻrganila boshlandi, frazeologizm obyektiga tor va keng maʼnoda qarash shakllandi.

Oʻzbek tilshunosligida frazeologizmning obyekti sifatida ibora, idioma, maqol, matal kabilarning ilmiy tadqiqiga doir⁶, oʻzbek yozuvchi, shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid koʻpgina izlanishlar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida maqolning maʼnoviy, uslubiy xususiyatlarini oʻrganishga eʼtibor qaratilgan ishlar bajarildi⁷, maqolning lingvistik xususiyatlarini ilmiy oʻrganish

⁶Данияров А. Стилистические функции синонимов в современном узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967. – 18 с.; Саломов Ғ. Бадий таржиманинг лексик-фразеологик масалалари: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1964. – 124 б.; Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 384 б.; Рузикулова М. Идиоматика узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1966. – С. 22; Каххарова Х. Фразеология Абдуллы Кадыри: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 24 с.; Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. – 274 б.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дис. автореф. – Тошкент, 1993. – 50 б.

⁷Назарова Х. Ҳ.Ҳ.Ниёзий асарларининг тили: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1944. – 114 б.; Шоабдурахмонов Ш. «Равшан» поэмаси тилининг бадий хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1949. – 128 б.; Ойбек романларининг тили ва стили // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1955. №10; Пинхасов Я. Фразеологические выражения в языке произведений Хаида Алимджана: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1953. – 18 с.; Ўзбек тили фразеологияси ҳақида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1957. – 27 б.; Шомаксудов А. Язык сатиры Мукуми (лексика и фразеология): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1956. – 18 с.; Абдуллаев В., Дониёров Х., Мирзаев С. Шиддаткор одамлар қиссаси // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1960. №2. – Б. 115–122; Хусайнов М. Фразеология прозы писательницы Айдын: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1959. – 18 с.; Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (Маҳорат ва тил ҳақида мулоҳазалар). – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Қўчқортюев И. А.Қаҳҳорнинг фразеологик маҳорати: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1965. – 134 б.; Самадов Қ. Ойбек – сўз санъаткори. – Тошкент, 1965. – 24 б.; Абдуллаев О. Эмоционально-экспрессивная лексика в современной узбекской прозе (по роману Абдуллы Каххара «Огни Кошчинара»): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1968. – 20 с.; Азизхонова Л. «Навой» романидаги фразеологизмларнинг рус

ham boshlandi⁸. O‘zbek tilshunosligida maqolning sintaktik xususiyatlari X.Abdurahmonovning nomzodlik ishida o‘rganilgach, olim izlanishlarini davom ettirib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari tilining sintaktik xususiyatlarini atroflicha tadqiq etdi.

Keyingi ishda o‘zbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, maqollardagi gaplar va so‘z birikmalarining asosiy ko‘rinishlari, ularning morfologik, sintaktik, ba’zi ma’noviy-uslubiy xususiyatlari keng yoritilgan. M.Sadriddinovaning ishida o‘zbek maqol va matallarining lug‘aviy xususiyatlari tadqiq etilib, maqol va matallar leksikasi, bir tomondan, o‘zbek adabiy tili leksikasi bilan, ikkinchi tomondan esa lahja va shevalar leksikasi bilan qiyosiy o‘rganildi. Muallifning nomzodlik dissertatsiyasida maqollarning ma’noviy-uslubiy jihatlari: ko‘p ma’noliligi, sinonimligi, variantliligi, uslubiy xususiyatlari tadqiq etildi⁹. P.Bakirovning tadqiqotida nominatsentrik¹⁰ maqollarning semantik va struktur xususiyatlari rus, o‘zbek va qozoq tili materiallari asosida batafsil izohlandi¹¹.

Maqollarning lingvistik shakllanishi masalalariga N.V.Zimovetsning maqolasida¹², I.Sirotning monografiyasida¹³, B.B.Mansurov¹⁴ va

тилига таржимаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. №3. – Б. 54–57; Аскарлов С. А.Қодирий ижодида фольклорнинг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. №1. – Б. 19–22; Жўраховов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. №4. – Б. 52–55; Тўйчиев М. “Шинелли йиллар” романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши / Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДПИ асарлари. – Самарқанд, 1971. – Б. 84–87; Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – 176 б.

⁸Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, 1964. – 18 с.; Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1977. – 48 с.; Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 18 с.; Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2002. – 24 б.; Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... док. филол. наук. – Тошкент, 2007. – 286 с.

⁹Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2002. – 136 б.

¹⁰Эга ва кесими бош келишидаги от ва ҳаракат номи билан ифодаланган мақоллар. Бу атама илк марта профессор П.Бакировнинг тадқиқотида қўлланган.

¹¹Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дисс. ... док. филол. наук. – Тошкент, 2007. – 286 с.

¹²Зимовец Н.В. К вопросу о происхождении английских пословиц и поговорок / Актуальные вопросы переводоведения и практики перевода. – Россия. Г. Белгород. 2013. – С. 112–118.

¹³Сирот И.М. Русские пословицы библейского происхождения. – Брюссель: Жизнь с Богом, 1985. – 128 с.

S.Basharan¹⁵larning dissertatsiyalarida dawl qilingan bo'lib, o'zbek tilshunosligida ushbu masalani atroflicha tadqiq etish kun tartibidagi muhim vazifalardan biridir.

Millatning o'zligini ko'rsatuvchi milliy qadriyatlarni, xalqning madaniyatini ifodalovchi omillardan biri bu xalq og'zaki ijodidir. Xalqlar boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o'rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg'ular tasvirini ko'rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. Xalq og'zaki ijodining dolzarb janrlaridan bo'lmish maqollar tilshunoslik va folklorshunoslikda o'rganilayotgan muhim mavzulardan biridir. Folklorning eng muhim janrlaridan biri bo'lgan maqollarni, umuman, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish, bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqol va matallar, aforizmlar kishilarning, ayniqsa, yoshlarning ongini o'stiradi, ularni to'g'riso'z, rostgo'y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo'lishiga o'rgatadi, kishidagi eng insoniy fazilatlarni targ'ib etadi. Shuningdek, yozuvchi, shoirlar va notiqlarning so'z boyliklarini orttiradi, ularning asarlarini badiiy jihatdan g'oyat ta'sirli qiladi. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir.

Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiyestetik va falsafiy qarashlari namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda. Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan, eskilarining jonli muomalada, tilda

¹⁴Мансуров Б.Б. Религиозно-хадисный аспект в казахских пословицах и поговорках: Автореф. дисс. ... док. философ. (PhD) по филол. наук. – Ашхабад, 2018. – 24 с.

¹⁵Башаран С. Hadislerin Turk Atasozlerine Tesiri. – Туркия, 2017. – 22 с.

mavjudlarining ma'no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan. Chunki o'zbek xalqining bunday ulkan folklor merosi folkloristik nuqtayi nazardan keyingi asrlargacha deyarli to'planmay va o'rganilmay kelgan. Bundan xalq maqollari o'tmish adiblari, shoirlari, tarixchilari e'tiboridan mutlaqo chetda ekan, degan xulosa chiqarmasligimiz kerak.

Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'ozil Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalash ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so'zga alohida e'tibor berish kerak. Ularda shunday so'zlar borki, bu so'zlar tarixan butunlay boshqa ma'nolarni anglatgan. Masalan, tuz so'zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu so'z to'g'ri, odobli; dala, tekislik ma'nolarini anglatgan va faqat maqollardagina saqlanib qolgan: Qiz saqlasang, tuz saqla. Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan bo'l. Shuningdek, mehnat so'zining azob-uqubat, baxtsizlik ma'nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin: Mehnat ham egiz-egiz, Davlat ham egiz-egiz. Maqollar - grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralaridir. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi.

Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi. Maqollarning shakllanishini tushuntirishda maqollarning vujudga kelishi va qo'llanishidagi assotsiatsiyalar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollar xuddi formulalar kabi ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, formulalar asosida hisob-kitob ishlarining amalga oshirilishi maqollarning muayyan vaziyatga mos ravishda nutqda qo'llanilishi assotsiatsiyalar asosida amalga oshiriladi. Maqollardan ko'zda tutilgan maqsad ko'p qirrali va polifonik xarakterga ega bo'lib, uni quyidagicha tip va turlarga ajratish mumkin:

1. Fikrning asoslilikini ta'minlashda metodologik vazifa;
2. Fikrning ifodaviyligini ta'minlashda obrazlilik vazifasi;
3. Fikrning ta'sirchanligi ta'minlashda intensivlik vazifasi;
4. Fikrning "yumshoq"ligini ta'minlashda evfimistik vazifa;
5. Personajlarning qarashlari, ruhiy holatini yorqinroq berishda psixologik vazifa;
6. Matnning yaxitligini ta'minlashda struktur vazifa;
7. Kitobxonning tuyg'ulariga ta'sir qilishda estetik vazifa;
8. Fikrni lo'nda va aniq qabul qildirishda persentiv vazifa;
9. Voqelikni maqol bilan bog'lab tushuntirishda kognitiv vazifa;
10. Til va tafakkur uyg'unligini ta'minlashda lingvokulturologik vazifa va b.

Olimlarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelayotgan maqollar folklor, etnografiyaning o'rganish obyekti sifatida tadqiq etildi. Bu borada H.Rahmatullayev, YA.Pinxasov, G'.Salomov, Q.Samadov, SH.Shorahmedov, X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova singari olimlarning xizmatlari katta. Bundan tashqari Mullo Bekjon Rahmon o'g'li, B.Karimov, Sh.Rizo, O'.Azimov, O'.Xolmatov, H.Zarif, M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov, R.Jumaniyozov, M.Ahmadboyeva, E.Siddiqov, T.Mirzayev, K.Imomov,

R.Jahongirov, S.Qosimov, Z.Husainova, B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev kabi o‘zbek folklorshunos olimlari maqollarning nazariy masalalarini tadqiq qilganlar.

O‘zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berilib majmualarga kiritish, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi X.Vamberining 1967-yilda Leypsigda nashr etilgan «Chig‘atoy tili darsligi» xrestomatiya-lug‘atiga o‘zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo‘lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan. Shundan keyin birin-ketin N.Ostroumov (1895), B.Rahmonov, (1924), O‘.Zaripov (1939-1947), T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musog‘ulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to‘plamlari nashr etildi. M.Abdurahimov, X.Abdurahmonov, M.Sodiqova kabi olimlarning tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishidagi to‘plamlari yuzaga keldi. Shuningdek, Ye.Chernyavskiy, V.Ro‘zimatov (1959), N.Gatsunayev (1983, 1988), A.Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o‘zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to‘plamlar sifatida bosilib chiqdi. O‘zbek tilida hikmatli iboralarni umuman maqol deb atashadi, ammo bu tushunchani ifodalash uchun o‘ndan ortiq atama qo‘llanadi: maqol, matal, masal, naql, hikmat, tanbeh, zarbulmasal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so‘zi, donishmandlar so‘zi, donolar so‘zi, yaxshilar so‘zi, burungilar so‘zi, ulusning so‘zi, avomunnos masali, hikmatli so‘z va hokazo. Ilmiy adabiyotlarda maqol va matal atamalari deyarli farqlanmaydi. Hatto ba’zi manbalarda paremalarning turlari sifatida farqlangan bo‘lishiga qaramay, maqol va matal terminlari izohi chalkashtirib yuborilgan o‘rinlarni ham uchratish mumkin. Mumtoz adabiyotda maqol atamasi so‘z, nutq, gap tushunchalarini anglatgan va maqol tushunchasini ifodalash uchun esa masal istilohi qo‘llangan. Masalan, mumtoz she‘riyatda maqol qo‘llanayotgan matndagi masaldurkim, masalkim, masal budur kabi birikmalar maqol ma‘nosini anglatib keladi. Maqol har bir xalqning og‘zaki ijodida uchraydigan janrdir. Maqol mantiqiy fikrlash namunasi bo‘lib, unda odob, axloq qoidalarini birlashtirgan fikr

mavjud. Maqollar ta'lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega, u kishilarni ogahlantiradi, maslahat beradi, tanqid qiladi, mehnatni ulug'laydi, hajv kulgu ostiga olinadi. Maqollar ba'zi jihatlari bilan matallarga o'xshasada, ularning har birini o'z o'rnini, xususiyatiga ega. «Sulaymon o'ldi, devlar qutildi», «Tosh qattiqmi bosh», «Ko'rgan bilan eshitgan bir emas» kabilar matallar hisoblanib, ushbu matallar juz'iy belgini anglatib, nutqni ta'sirchanligini orttirsa, maqollar chuqur va keng ma'noga, tugal fikrga egadir. Nutqda axborot berish vositasi maqol bo'lsa, shu axborotni jonli timsollarda yetkazish, uni dalillash, isbotlash vositasi sifatida matal qo'llanadi. Bu jihatdan matallar iboralarga yaqin turishini unutmaslik kerak. Matallarda turli xil holatlar obrazli qilib tasvirlanadi va ularning didaktik xususiyati sezilmay qoladi. Maqollarning esa tarbiyaviy jihatlari ko'zga tashlanadi va aksariyat bunday birliklar maslahat, buyruq va darak mazmunini ifodalashi bilan matallardan farqlanadi. Maqollar zamonlar osha tobora sayqallanadi, pishiydi, mazmuni teranlashadi. Ba'zi hollarda esa, buning aksicha, eshituvchi va qayta talaffuz etuvchilarning muayyan maqsadda aytmoqchi bo'lgan ma'noni tushunmasligi, yoxud eshitganini eslay olmay, o'zicha qo'shib-chatib aytishi, yoinki ma'lum bir fikrni ifodalamoq uchun eshitgan maqoli tarkibidagi ayrim so'zlar o'rniga atayin boshqa so'zlar ishlatib, asl ma'nosi va mazmunini boshqa tomonga burib aytishi oqibatida ko'pgina maqollar keyingi avlodlar orasida asliga nisbatan noto'g'ri, mantiqqa zid tarzda qo'llaniladigan bo'lib qolgan. Bu holni xalqimiz orasida qo'llanilayotgan va yozma adabiyotda, kinofilmlar va teatr tamoshalarida, matbuot, radio va televideniyada ishlayotgan, hatto hikmat durdonalarining ayrim to'plamlariga kiritilgan bir qancha maqollarda ko'rishimiz mumkin.

Maqol matni qisqa, ixcham va lo'nda fikrlash, aniq bayon etishni taqozo etgani bois ijodkorga qo'l keladi. Maqol matni mazmun jihatdan tahlil etilmaydi, chunki maqollar, odatda, to'g'riligi isbotlangan holda, qayta-qayta ishlanib vujudga keladi. Mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman" degan edi. Maqollarning yana bir

muhim jihatlaridan biri ulardagi ibratlilik. Maqollarda har doim ibratli fikr aytiladi. Lekin har qanday ibratli fikr maqol bo'lavermaganidek, ibratli fikrlarning maqollarga aylanishi uchun bir qancha shartlar mavjud. Ular quyidagicha:

- Maqolga aylanuvchi ibratli fikr xalqning uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribasida sinalgan bo'lishidadir. Hayotiy tajribada sinalgan har qanday fikr kishini ishontira oladi;

- Maqolda ifodalangan ibratli fikr alohida shaxsgagina emas, balki umuminsoniy xarakter kasb etishida;

- Sinalgan umuminsoniy fikr ixcham, mukammal badiiy shaklga ega bo'lishi shartdir.

Xalq maqollari asrlar davomida o'zining shakl va mazmun jihatdan nodir xalq og'zaki ijodi namunalari sifatida buyuk va taniqli adiblar e'tiborini jalb qilib keldi. Yusuf Xos Hojibdan tortib Muqimiygacha, Alisher Navoiydan tortib Oybekgacha xalq maqollaridan samarali foydalanganlar. Jumladan:

- Alisher Navoiy lirikasida «Chiqmag'on jong'a umid», «It uyub qoldiyu, ko'chdi karvon», «Men firoqdin desam, ul der Iroqdin»;

- Bobur ijodida: «Bo'lib turur ikki ko'zim yo'lida to'rt», «Men edim saningdek, sen bo'lg'oysen maningdek»;

- Abdulla Qahhor ijodida «Otning o'limi, itning bayrami», «Quruq qoshiq og'iz yirtar»;

- «Alpomish» dostonida «Sulton suyagini xo'rlamas», «Elakka borgan xotinning ellik og'iz gapi bor» kabi maqollar ko'plab uchraydi.

O'tgan asrda o'nlab maqollar to'plami e'lon qilindi. «O'zbekcha otalar so'zi» (1924), «Maqollar va hikmatli so'zlar» (1939), «Otalar so'zi — aqlning ko'zi» (1947), «O'zbek xalq maqollari» (1978), «O'zbek xalq maqollari» (2 jildlik, 1987— 1988) kabilar shular jumlasidandir. Ularni to'plash, nashrga tayyorlash, tadqiq etishda avval Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ozim Olim Yunusov, G'ulom Zafariy; keyinchalik Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov, Zubayda Husainova, G'ani Jahongirov, Rajab Jumaniyozov, To'ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov,

Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov, Asqar Musaqulov, R. Zarifov kabi olimlar munosib hissa qo'shdilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maqollarning o'rganilishi o'zbek millatining boy tarixini ko'rsatish bilan birga milliy madaniyatini ham o'zida namoyon qiladi. Maqollar mazmuniy bir butunlik nomi ostida tilshunoslik yutuqlari asosida o'rganilgan. Xalq maqollari faqat badiiy asar matnida emas, publitsistik, memuar asarlar matnida ham, ommabop uslubda ham qo'llanadi. Bunday uslubda ham maqolning o'ziga xos badiiy-estetik vazifasi namoyon bo'ladi. Badiiy matnda muallifning o'quvchi yoki kitobxoniga estetik ta'sir qilish maqsadi birinchi planda tursa, nobadiiy matnda muallifning asosiy maqsadi o'quvchi yoki kitobxoniga kommunikativ ta'sir qilishdan iborat bo'ladi.

1.3-§. Oila nutqida qo'llanadigan maqollarning lingvistik jihatlari

Har bir tilda akslanayotgan milliy madaniyat ko'proq xalq og'zaki ijodi sanalgan maqollarda aks etadi. Til "ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyatni meros qilib qoldiradi. Shu qatorda o'ziga xos madaniy boy tajribani ham".

Bu tajriba qanday taraqqiy etgan bo'lishidan qat'i nazar unda ota-ona konsepti mavjud bo'ladi. Ota-ona insonni dunyoga keltiruvchi, uni shaxs sifatida kamol toptiruvchi inson ekanligi har bir jamiyatda ularga bo'lgan aksiologik qarashlarni dunyoga keltiradi. Maqollar har bir jamiyatning turmush tarzi, madaniy qarashlari hamda qadriyatlar tizimining o'ziga xos ekanligini belgilab beradi.

Jumladan, jamiyatdagi otaga bo'lgan munosabat mazkur jamiyatning madaniyat darajasi bilan bog'liqdir. O'zbek madaniyatida ota yoki onaga bo'lgan munosabat qadriyat darajasida bo'lib, uni lingvokulturologiyaning predmeti bo'lgan xalq maqollari misolida dalillash mumkin. "Zero, til olam va odam munosabatini o'zida aks ettiruvchi mohiyatdir".

Madaniyatning shakllanishida muhim omillardan biri bu dindir. Din xalqni va jamiyatni ma'lum bir tartibga undovchi saodat yo'lidir. Kishilik jamiyatining

milliy-madaniy jihatdan shakllanishida uning o'rnini katta. Shu sababli turg'un birikmalarning semantikasida dinning ta'sirini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

1. *Amri padar arshdan ulug'.*
2. *Ota rozi - Xudo rozi.*
3. *Ota onasini tanimagan tangrisini tanimas.*
4. *Otang ishga buyursa nomozingni buzib ayt.*

O'zbek tilining izohli lug'atida "Arsh" leksemasi quyidagicha izohlanadi: Arsh 1 (taxt, shiypon) osmonning eng yuqori qavati, yuqorisi. Har uchala maqolda ham islom madaniyati yaqqol namoyon bo'lgan. "Arsh" – islom aqidasi ko'ra, yer, osmon, yulduzlar va kursiydan ham katta hajmdagi mavjudod. Ollah yaratgan barcha narsadan u buyuk va kattadir. Maqolda otaning so'zi yoki buyrug'i farzand uchun naqadar muqqaddas, rad etib bo'lmaydigan narsa ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Demak, islom dini ta'sirida shakllangan ushbu maqollarda "ota" konseptining ulug'lanishini ko'rishimiz mumkin.

1. *Otang ishga buyursa,*
2. *Ota oldidan o'tma,*
3. *Ota oldida kek urma,*

Odobingga chek urma.

Keltirilgan paremeologik fond namunalarini yuqorida berilgan maqollarning mantiqiy davomi sifatida baholash mumkin. Oldin o'git berilgan bo'lsa endi natija ifodalanmoqda.

O'zbek milliy madaniyatida "ota" konseptining "oila ustuni", "oila himoyachisi", "muhim qarorlarni qabul qiluvchi", "oilaning asosiy boquvchisi" kabi tashkil etuvchilari bor.

"Oilaning asosiy boquvchisi" "ota" konseptining asosiy assotsatsiyalaridan biridir.

1. *Otanging chorbog'ida qolguncha, Onangning oymog'ida qol.*

2. *O‘roq tutib otang qolguncha, O‘ymoq tutib onang qolsin.*

3. *Otangning mol dunyosi bilan qolguncha, Onangning piltasavati bilan qolgin.*

Chorbog‘ o‘zbek tiliga tojik leksikasidan kirib kelgan bo‘lib, chor, ya’ni “to‘rt bog‘” degan ma’noni anglatadi. O‘ymoq – uncha katta bo‘lmagan chuqurlik, tor, bejirim; shevada esa “angishvona” ma’nosini bermoqda. 1-

maqolda “o‘ymog‘i” leksemasi kichik joy ma’nosini anglatmoqda. Ota va ona, chorbog‘ va o‘ymog‘ leksemalari nutqiy antonimiya hosil qilmoqda. 2-

maqolda “oymoq” leksemasi “oroq” bilan qarama – qarshi qo‘yilganini inobatga olsak, o‘ymoq izohli lug‘atda keltirilgan angishvona izohiga to‘la mos keladi. 3-turg‘un birikmada piltasavat madaniy koddir. Madaniyat kodlari tilda, asosan, xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg‘un o‘xshatish, metafora, qarg‘ish, duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda in’ikos etadi.

Madaniyatshunoslarning xulosasiga ko‘ra esa madaniyat kodlari madaniyatni tushunish kalitidir, u biron-bir shaklda kodlangan madaniy axborotni aniqlash imkonini beradi. Demak, madaniy kod ma’lum bir jamoalargagina tushunarli bo‘lgan muayyan mazmunni shartli va ramziy tarzda ifodalovchi takrorlanmas belgilar tizimidir. Piltasavat o‘zbek oilalarida foydalaniladigan uy ro‘zg‘or buyumidir. Pilta – charxda ip yigirish uchun piltakachda yumaloqlangan bir bo‘lak paxta. Bunday paxtalarni savatga solib qo‘yib, birma-bir olib ishlatardilar. Piltasavat leksemasi “Otangning bog‘-u rog‘i bilan qolguncha onangning piltasavati bilan qol” maqolida asosiy mazmunini ifodalashda yordamchi vosita bo‘lib kelmoqda. Uning tushunilishi alohida bir madaniy tahlilni taqozo etadi. O‘zbek madaniyati bilan, uning turmush tarzi bilan tanish bo‘lmagan kishi bu maqolni tushuna olmaydi. Shuning uchun ham uni madaniy kod sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Mazkur maqollarda otaning asosiy boquvchisi ekanligi bilvosita ifodalanmoqda. Bu tagma’no “chorbog‘”, “o‘roq”, “mol dunyo” so‘zlari bilan voqelanmoqda. Zero, qadimda erkaklar ishlagan, ayollar esa xonadon yumushlari

va farzand tarbiyasi bilan mashgʻul boʻlgan. Lekin ushbu maqollardaga asosiy hukm bu emas. Unda ona olamdan oʻtib ketsa, farzandlarni ota eplashi qiyin kechishi, odatda ayoli olamdan oʻtgan erkaklarning yana turmush qurishi va bu holat har doim ham farzandlarga yoqmasligi kabi xalqning tajribalari aks etgan. Turmush oʻrtogʻi olamdan oʻtgan ayollar esa har qanday holatda ham farzandlari uchun yashaydi, oʻzbek madaniyatida deyardi oila qurmaydi. Shuning uchun ham xalq tilida quyidagi kabi maqollar mavjud: Onali yetim gul yetim, Otali yetim shum yetim.

Maqollarda nafaqat qadriyatlar, balki achchiq hayotiy tajribalar, boshdan oʻtkazilgan sinovlardan chiqarilgan achchiq xulosalar ham oʻrin olishi yuqoridagi maqollarda aks etgini koʻrib chiqdik. Bu kabi achchiq hayotiy tajribalardan chiqarilgan xulosalar millatlararo mushtaraklikka ega. Masalan, rus lingvomadaniyatida: Без отца полсироты, а без матери и вся сирота maqoli mavjud boʻlib, u oʻzbek tilidagi ushbu maqolning muqobilidir: Otasiz yetim gul yetim, onasiz yetim chin yetim. Madaniyatlararo ushbu mushtaraklik ona har qanday shaxslar madaniyatida mehr timsoli ekanligining isbotidir.

Maqollar tahlilidan maʼlum boʻldiki, oʻzbek xalq maqollarida ota va ona bir-biriga zid qoʻyiladi, hamda nutqiy antonimiyani tashkil etadi. Aslida, til sathida ota va ona soʻzlari antonimlikni hosil qilmaydi. Bu kabi bir tushunchaning ikki tomonini anglatuvchi ota-ona, aka-uka, oʻgʻil-qiz kabi soʻzlar oʻzaro korrelyativ munosabatdagi soʻzlar deyiladi: “Antonimlarni umumiy giperonimga ega giponimlarning oʻzaro munosabatidan farqlash lozim. Masalan, umumiy jins giperonimga ega ayol va erkak, farzand giperonimi bilan umumlashadigan oʻgʻil va qiz giponimlari antonimik juftlikni hosil qila olmaydi. Albatta, ushbu leksemalar yagona differensial semasi bilan farqlanishi mumkin. Antonimik munosabat hosil boʻlishi uchun esa qarama-qarshilik bitta mohiyatning, hodisaning ichida boʻlishi va yana ikki leksema tarkibidagi yagona farqlovchi semalar ham zid boʻlishi kerak. Oʻgʻil va qiz, ota va ona, togʻa va xola leksemalari «erkak» va

«ayol» semalari asosida (farqlanadi) zidlanadi. Bizningcha, erkak va ayol bir hodisaning qaramaqarshi tomonlari emas, bir giperonimga ega ikki xil hodisadir”.

Maqollardagi nutqiy antonimiyaning ko‘p kuzatilishining asosiy sabablaridan biri – millat o‘zaro zid bo‘lmagan narsa, belgi-xususiyat, harakatlarni bir-biriga solishtiradi, zidlaydi. Shu tariqa maqollarda nutqiy antonimiya hosil qilinadi. Xalq ota va ona so‘zlarini bir-biriga zidlar ekan, otaning qat’iyati va onaning mehribonligi ko‘proq oppozitsiya belgisi bo‘lib keladi: Ota qarg‘ishi oq, Ona qarg‘ishi do‘q. Maqolda otaning qarg‘ishi o‘qqa, onaning qarg‘ishi do‘qqa o‘xshatilmoqda. Mazkur o‘xshatish orqali metafora yuzaga kelgan. Bu o‘rinda otaning qarg‘ishi o‘q kabi tez yetib boradi va shikastlaydi, degan ma’no asosida ko‘chim hosil bo‘lmoqda. Bu o‘rinda lisoniy emas nutqiy metafora haqida so‘z yuritish lozim. Onaning qarg‘ishi otanikiga nisbatan kuchsiz ekanligi uning do‘qqa qiyoslanganidan ma’lum.

Gruzin lingvomadaniyatida ham shu kabi turg‘un birikmani uchratish mumkin.

Ota qarg‘asa soqoli ta’kidlaydi, Ona qarg‘asa qalbi duo qiladi.

Ma’lumki, o‘zbek madaniyatida o‘g‘il farzand otaning o‘rnini bosuvchi shaxs sifatida ifodalanadi. Qiz farzand esa onaga mengzaladi: *Otaning aksi o‘g‘ilda, Onaning aksi qizda ko‘rinadi. Onasiga qarab qizini ol.*

Qozoq lingvomadaniyati namunasi bo‘lgan quyidagi maqolda ham ota-o‘g‘il munosabati yuksak ekanligini ko‘rishimiz mumkin: *Otadan o‘g‘il qolsa, demak, u yashamoqda, Otadan qiz qolsa, demak, undan iz qolibdi.*

Yuqorida keltirilgan qozoq va o‘zbek lingvomadaniyatiga tegishli maqollarda ham umummadaniy qarashlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘zbek va qozoq xalqining umumiy turkiy madaniyati, umumiy e’tiqodi, yaqin hudud, yaqin qo‘shnichilik, bir til oilasiga mansublik kabi omillar bilan izohlanadi.

O‘zbek madaniyati tarixidan ma’lumki, ota-qiz munosabati go‘zal tarbiya tasirida vujudga keladi. O‘g‘il va ota munosabati esa o‘zgacha tartib asosida quriladi. Ota o‘g‘ilni hayotga tayyorlovchi eng muhim shaxs etib ko‘rsatiladi.

Ushbu fikrimini quyidagi maqollar orqali tasdiqlash mumkin: *Otalik o'g'il – egalik qul. Otasiz o'g'ilning og'zi katta.*

Bobga doir xulosalar

1. Oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, harakter va dunyoqarsh shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

2. Maqollarning o'rganilishi o'zbek millatining boy tarixini ko'rsatish bilan birga milliy madaniyatini ham o'zida namoyon qiladi. Maqollar mazmuniy bir butunlik nomi ostida tilshunoslik yutuqlari asosida o'rganilgan. Xalq maqollari faqat badiiy asar matnida emas, publitsistik, memuar asarlar matnida ham, ommabop uslubda ham qo'llanadi.

3. Maqollar ta'lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega, u kishilarni ogahlantiradi, maslahat beradi, tanqid qiladi, mehnatni ulug'laydi, hajv kulgu ostiga olinadi. Maqollar ba'zi jihatlari bilan matallarga o'xshasada, ularning har birini o'z o'rni, xususiyatiga ega.

II BOB. O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING OILA A‘ZOLARI NUTQIDA QO‘LLANILISHI

2.1-§. Oilada maqollarning yosh jihatdan qo‘llanilishi

Til – millat ko‘zgusi bo‘lib, unda o‘sha xalqning ko‘rgan-kechirganlari, o‘tmishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiy tili olimlar, ziyolilar, adiblarning og‘zaki va yozma adabiyotining asosiy ijodkorlari bo‘lgan xalqimizning asrlar osha mashaqqatli mehnati, tilga sayqal berishi, uni chuqur o‘rganishi borasidagi xizmatlari evaziga turkiy tillar oilasida o‘ziga xos mavqega ega bo‘ldi. Bu tilda juda ko‘p o‘lmas badiiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu ham o‘zbek tilining madaniy tillar qatoridan o‘rin olishini ta‘minladi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tili asrlar davomida yanada shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Biz buni momolarimiz aytgan allalarda, bobolarimiz aytgan ertag-u rivoyatlarida ko‘rishimiz mumkin. Jonkuyar va irodali xalqimiz ona tilimizni saqlab qolish uchun har qanday zulmga qarshi chiqqan. Hatto og‘ir vaziyatlarda ham uni asrab, bugungi avlodga yetkazib berdi. Kerak bo‘lsa, ota-bobolarimiz, buyuk ajdodlarimiz jahon ma‘naviy xazinasiga o‘z hissalarini qo‘shdi. Shuni aytib o‘tishimiz kerakki, buyuk mutafakkirlarimiz o‘z asarlarida o‘zbek tilining mavqeyini yuksak darajaga ko‘targan. O‘zbek tilida, umuman olganda tojik, qozoq tillarida ham shunday so‘zlar, iboralar mavjudki, ularni eshitib shaxsning yoshini ajrata olamiz. Hattoki bu so‘zlar ayol yoki erkak kishilar tomonidan aytilyotganini ham fahmlaymiz. Bunday so‘zlar, gaplar yoki iboralar qo‘llangan shaxsga nisbatan biz uni necha yoshda ekanligi, qanday inson ekanligini idrok eta olishimiz mumkin. Ahamiyat bersangiz keksa yoshdagi insonlar ko‘proq maqollar, matallar bilan tinglovchiga o‘z fikr-mulohazalarini yetkazib berishga harakat qiladi. Chunki hayotning achchiq-chuchugini totgan, yaxshidan yomonni ajrata oladigan insonning nutqida bezakdorlik, shiradorlik kuchli bo‘ladi va aniq xulosali mazmunga boy so‘zlardan, gaplardan foydalanadi. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanini olaylik. Unda oqsoqolning bir gapi keltirilgan: “Odamzod yuz yil umr ko‘radimi, ming yilmi bari bir o‘lgisi

kelmaydi. Ammo Xudo odamzodga umrni o'lchab beradi. Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotganda qo'ldan kelgancha savobli ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g'isht qoyib ketadi. Yana bir xillari bor: o'sha imoratdan aqalli bitta g'ishtni o'g'irlab ketgisi keladi. O'g'irlabku hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshikka borganda bari bir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi". Ko'rinib turibdiki, yoshi ulug' insonlarning tafakkuri keng, fikrlash darajasi yuqori bo'ladi va o'z firklarini til vositalari orqali yoshlarga yetkazib bera oladi. Bundan tashqari tanbeh berganda ham ularda ijobiy bo'yoqdorlik kuchli bo'ladi. Masalan, uyingga bug'doy to'lgur, makkaga imom bo'lgur deb keksalarimiz beradigan tanbehlarda ijobiy bo'yoqdorlik kuchlidir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, tillar tasnifida o'zining muhim jihatlari bilan ajralib turadigan qozoq va tojik tillarida ham yuqoridagi holatlarni ko'rishimiz mumkin. Qozoq tilida shunday so'zlar borki, bu so'zlar, asosan, keksa yoshdagi insonlar tomonidan ishlatiladi. Masalan, бай болғыр (boy bo'l), молда бол (mulla bo'l), кәрілікке күлме – өзің соған қарай кетіп бара жатырсыңғой (qariyalarga kulma o'zing ham bir kuni qariysan), өркенің өссін шырағым (unibo'sgin chirog'im). Tojik tilida esa хонаат пури гандум шавад (uying bug'doyga to'lsin), барака ёбӣ (baraka topgin), аз чойҳои нағз ато кунад (yaxshi joylardan ato etsin) kabi gaplarni uchratamiz. Yoki bo'lmasa katta yoshdagi insonlar yosh bolalarga murojaat qilganda yoki chaqirganda ular tomonidan bolajonim, erkatoyim, ko'zmunchog'im, kichkintoyim kabi erkalash ohanggi kuchli bo'lgan so'zlar ishlatiladi. Bunday so'zlarni eshitganingizda beg'uborgina, jajjigina bolajonlarga nisbatan aytilyotganiga amin bo'lasiz. Ajablanarli tomoni shundaki, bunday lisoniy birliklar faqatgina o'zbek tilida emas, balki qozoq va tojik tillarida ham mavjud. Qozoq tilida ботақаным (bo'talog'im), тайыншағым (toychoq'im), қошақаным (erkatoyim), құлыншағым (toychoq'im), шожем (jo'jam) kabi so'zlar bilan kichkintoylarga murojaat qilinadi. Tojik tilida esa ширинаки ман (jonim), духтараки ман (qizalog'im), мисли шакар қандаки ман (shakar kabi shirinim), хушрӯяку лолаякам (chiroyli lolam) degan so'zlar yuqoridagi holatlarga misol

bo'la oladi. Umuman olganda, inson go'daklik paytida qanday muhitda tarbiyalansa, o'sha muhitga moslashadi. Hattoki oilada so'zlashuv madaniyati, ya'ni bolaning atrofidagi insonlar qay tarzda gaplashsa, bola ham shu til orqali muloqotda bo'ladi. Bolaning tilini rivojlantirish uchun, ularning nutqini aniq va ravon qilish uchun ota-onalar, o'qituvchilar tomonidan turli xil ishlar amalga oshiriladi. Ular bunday holatlarda, asosan, bolaga ko'proq she'rlar, qiyin so'zlarni o'qitishga harakat qiladilar. Bulardan asosiy maqsad yoshlarning nutq madaniyatini o'stirishdir. Yoshlarimiz gaplari shirali chiqishi uchun, nutqini ravon qilishi uchun turli xil sinonim so'zlardan, ko'chma ma'noli so'zlardan foydalanishga harakat qiladi. Biror narsaga ta'rif berganda ham ularning qiyosiylik darajasini oshiradi. Masalan, ota-onasiga, bobosiga, buvisiga murojaat qilganda: uyimiz chirog'i, tayanchim, duogo'yim, uyimiz ustuni, farishtasi kabi o'xshatishlarni qo'llaydi. Tojik tilida esa сартоҷи шукуфони мо (uyimiz boshi), офтоби дурахшонам бобо (quyosh kabi mehribonim), чароғи нурафшони мо (bizning yorqin nurimiz), дуогӯй (duogo'y) kabi so'zlar yoshlar nutqida faol uchraydi. Ko'rib turibsizki, yoshlarning nutqida, keksalarning nutqida ajralib turadigan ma'lum bir belgilar bor. Keksalarni e'zozlash, ularni hurmat qilish har bir yosh avlodning burchi hisoblanadi. Aynan shu burch va majburiyatlarni har qanday millat vakillari chin dildan ado etishsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ana shunday majburiyatlarni ado etayotgan millat vakillaridan biri qozoq xalqining asl farzandlaridir. Masalan, қарттар – қазынамыз (qariyalar hazinamiz), дария құмсыз болмас, қария мұңсыз болмас (dengiz qumsiz bo'lmas, qariyalar qayg'usiz bo'lmas), қарттар – шаңырағымыздың періштелері (qariyalar – uyimiz farishtalari) kabi qozoq yoshlarining nutqida faol bo'lgan gaplaridan ularni qariyalarni juda qattiq hurmat qiladigan xalq ekanligini bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari ayol va erkaklar nutqida ham ularni farqlovchi jihatlar mavjud. Yana ularda gapirish ohangi ham har xil bo'ladi. Erkak kishi qisqa, aniq gapiradi va bo'yoqdorlikka xos so'zlardan, barqaror birikmalardan kamdan kam foydalanadi. Lekin ular o'z nutqlarida tanbeh, buyruq ohangi kuchli bo'lgan

soʻzlarni koʻproq qoʻllaydilar. Hammamiz biladigan Choʻlponning “Kecha va kunduz” asarida Razzoq soʻfi indamas, kam gapiradigan inson edi. Oʻzining xotini Qurvonbibi bilan gaplashganda ham gaplari qisqa boʻladi yoki gapirmasdan yuz ishoralari orqali, qarashlari orqali javob qaytarar edi. Qurvonbibi esa soʻzga epchil, oʻz fikrini yetkazib bera oladigan mushtipar bir ona edi. Biz bundan koʻrishimiz mumkinki, ayol kishi bilan erkak kishining nutqi orasida juda katta farq bor. Ayollar esa oʻzining gapini batafsilroq qilishga va turli xil iboralardan foydalanishga harakat qiladi. Ularning nutqida koʻproq kesatiq, piching, boʻyoqdorlikka xos soʻzlar kuzatiladi va gapirish ohangi ham erkaklarnikiga nisbatan past, mayin boʻladi. Masalan, Oʻlmas Umarbekovning “Odam boʻlish qiyin” romanida Abdullaning buvisi nutqida shunday soʻzlar ishlatilgan: “ Voy, oʻla qolay! Abdullamisan? Voy, boʻyingga qoqay! Voy, sadagʻang ketay! Sen keladigan kun ham bor ekan-ku. Voy, men oʻlay seni tanimay! Indamay termilib oʻtiribman-a. Esonmisan, omonmisan? Nechuk, bolam, nechuk? Oʻzing keldingmi? Oying, dadang eson-omonmi? Voy, kel, bolam, kel!”. Ahamiyat bergan boʻlsangiz, ayollar koʻpincha his-hayajon bilan emotsiyaga berilgan holda oʻz gaplarini yetkazib bera oladi. Yuqoridagi asardan olingan parchada ham ayol oʻz nutqida koʻproq undov soʻzlardan foydalangan va bu gaplardan taajublanish, xursandchilik, soʻroq ohangi kuchli. Yana ayollar oʻz nutqlarida aylanay, qoqindiq, oʻrgilay kabi soʻzlardan koʻproq foydalanadilar va ular, asosan, urgʻuni choʻzib gapiradilar. Xuddi shu vositalar orqali erkaklar nutqi ayollar nutqidan ajralib turadi.

2.2-§. Oilada maqollarning gender (jins) jihatdan qoʻllanilishi

Erkak va ayollar biologik va fiziologik jihatdangina emas, balki MX jihatidan ham farqlanadilar.

Ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar masalasi boʻyicha Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari tillari misolida, shuningdek, yapon, rus, gruzin tillari materialida qator tadqiqotlar mavjud. Turkiyshunoslikda bu borada N. I.Grodekov (qozoq va qirgʻizlar misolida), Y.D.Polivanov (Samarqand

eronilarining o‘zbekcha nutqi misolida), A.N.Samoylovich (qozoqlar va oltoylar misolida) larning kuzatishlari, shuningdek, qator turkiyshunos-dialektologlarning asarlarida mazkur masala bilan bog‘liq ko‘plab qaydlar bor.

Jamiyatda ayollarga bo‘lgan munosabat deganda ko‘z oldimizga , avvalo, onalarimiz keladi.Ularning mehribonligi,xulq-atvori,harakteri har xil ,albatta. Shuning uchun ham ularga nisbat beruvchi leksikalarimiz ham turlicha. Masalan,yoshiga , jinsiga, qarindoshliligiga va boshqa xususiyatlarga ko‘ra maqollar turlicha qo‘llanadi. Shunga ko‘ra ulardagi leksik ma’nolar ham turlicha bo‘ladi.Ayniqsa, ayollarga nisbatan qo‘llanuvchi maqollar leksikasi bir -birini takrorlamaydi.Yoshiga qarab maqollar leksikasi ham o‘zgarib boradi.Endigina to‘yi bo‘lib, yangi hayot ostonasini boshlagan kelinchakka nisbatan quyidagicha maqollar ishlatilishini ko‘rishimiz mumkin.

-Yangi kelinga va yangi chiqqan oyga qaragan ahmoq.

-Bir kelin oldim-o‘tirdim,

Ikki kelin oldim-o‘tirdim,

Uch kelin oldim-yugurdim.

Yigitning ko‘ngli qolsa o‘lguncha ,

Xotinning ko‘ngli qolsa tuqquncha.

Nikoh islomga ko‘ra, ayol roziligi majburiy bo‘lgan „shartnoma“ sifatida ko‘riladi. Ayollar meros olish huquqiga ega bo‘lib, Islom tarqalishidan oldin bu huquq ilgari faqat erkakning qarindoshlariga berilgan. Annemari Shimmel aytadiki, „Ayol o‘rnini islomgacha bo‘lgan davr bilan solishtirganda, Islom qonunlari ostidagi ayol holatining bunday o‘zgarishlari ulkan taraqqiyotni anglatardi; qonunga muvofiq ayol o‘z boyligini boshqarish huquqiga ega bo‘ldi”

Jins jihatdan farqlanadigan maqollarda aynan ayollarga nisbatan ishlatiladigan maqollarda salbiy –ijobiy bo‘yoqdorlik leksik-semantikasi farqlanishini ham ko‘rishimiz mumkin:

Yomon xotin olganning yovi uyida,

Ikki xotin olganning dovi uyida.

Yomon xotin eriga do‘zax qilar.

*Yomon xotin o'lsa, keng to'shak qolar,
Yaxshi xotin o'lsa, mehnat-g'am qolar.*

Yomon xotin hayitda eridan chiqar.

Yomon xotinning o'ynashi ko'p.

Yomon qo'shni yovdan yomon.

Yog'mas bulut elni aldar,

Yomon xotin — erni.

Bo'ldiradigan ham xotin,

O'ldiradigan ham xotin.

Bo'ldiradigan ham xotin,

O'ldiradigan ham xotin.

Olis yo'l otni sinar,

Og'ir kun xotinni.

Aqlli xotin uy ko'rki,

Chiroyli xotin ko'cha ko'rki.

Ayolning sarishtasi-

Ro'zg'orning farishtasi.

Ayolning sunbuli-yigitning dili.

V.M.Alpatov 1988-yili chop etilgan “Японий. Язык и общество” nomli kitobida yapon ayollarining MX haqida ancha batafsil ma'lumot beradi va yaponiyada hatto maxsus ayollar tili (nutqi) mavjudligini, ayollar nutqi erkaklar nutqidan muloyimligi, nazokatligi, shuningdek, ayrim maxsus til birliklari bilan farqlanib turishligini ta'kidlaydi¹⁶.

¹⁶ Алпатов В. М. Япония. Язык и общество. - М.: Наука, 1988, с. 70.

O'zbek ayollari nutqining ayrim o'ziga xos xususiyatlari haqida tilshunoslarning kitob va maqolalarida qisqacha to'xtalib o'tilgan¹⁷. Umuman, MX jins jihatdan ham qator o'ziga xosliklarga ega. Quyida o'zbek MX-ning jins jihatdan xoslanishining asosiy sabablari, ayrim ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari haqida o'tkazgan tadqiqotlarimiz natijalarini bayon qilamiz. Turmush tarzi hamma vaqt inson kayfiyatini belgilaydi va uning harakteriga, MXga kuchli ta'sir etadi. Erkak va ayollar bajaradigan vazifalari, ijtimoiy haq-huquqlari jihatidan bir-biridan farqlanar ekanlar, demak, ularning MXlari ham o'z-o'zidan farqlanadi. Burch va haq-huquqlardagi, mehnat taqsimotidagi farqlar qanchalik katta bo'lsa, MXdagi farqlar ham shunchalik katta bo'ladi. Chunonchi, "O'rta asrlarda yapon ayollarining jamiyatdagi o'rnini ancha yuqori bo'lganligi sabab, u davrdagi erkak va ayollar nutqi o'rtasidagi farq unchalik katta emas edi. Faqat o'rta asrlarning oxirlariga kelib samuray (tajovuzkor yapon harbiylari) toifasi birinchi planga chiqib qolganidan keyin, ayollarning holati keskin yomon tomonga o'zgarishi munosabati bilan nutqiy farqlanishlar ham shakllandi"¹⁸.

Tarix qatlamlariga chuqurroq kirib borsak, ayolga cho'ri yoki jonivor sifatida munosabatda bo'linganini Sharqning ko'plab quldorlik davlatlari misolida kuzatish mumkin. Bundan uch ming yillar avval tuzilgan Assiriya hukmnomalarida aytilishicha, ayollarning maxsus yopinchiqlari bilangina tashqariga chiqishi qonun yo'li bilan belgilab qo'yilgan. ...Shuningdek, er o'z xotinini ayovsiz kaltaklashi, sochlarini yulib olishi, qulog'ini qirqishi mumkin bo'lgan va buning uchun hech qanday jazo olmagan.

Shunga o'xshash holatlarni qadimgi Eron tarixida ham kuzatish mumkin. Qadimgi Eronda zardushtiylik diniga amal qilingan va bu diniy eotiqodga ko'ra ayollarning ibodatxonalarga kirishi taqiqlangan. Ayol faqat o'z uyida muqaddas olovga sig'inishi, o'choqdagi olovni hech qachon o'chirmasligi lozim bo'lgan.

¹⁷ Қаранг: Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. - Тошкент: Фан, 1979, 111-112-б; Искандарова Ш. Аёллар нутқида ундов сўзларининг қўлланиши // Республика ёш филолог олимларнинг анонавий илмий конференцияси материаллари. - Тошкент, 1991, 61-63-б.

¹⁸ Алпатов В. М. Япония. Язык и общество, с. 74.

Ammo o‘choqdagi muqaddas olovga o‘zining “noxush” nafasini tekkizmasligi kerak bo‘lgan. Shuning uchun og‘iz-burun aralash ro‘mol o‘ragan. Turkmanistonda hozir ham saqlanib qolgan og‘iz-burunni o‘rab yurish ana shu odatning qoldig‘idir¹⁹.

O‘tmishda O‘zbekiston xotin-qizlarining ham insoniy haq-huquqlari cheklanganligi, moddiy-maonaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirganliklari sir emas. Hali turmush va hayot haqida tasavvurga ega bo‘lmagan qizchalarni turmushga chiqarish, “xotin kishining boshi - uy ichining og‘ir toshi” degan aqidaga amal qilish, uning ostona hatlab tashqariga chiqishini taqiqlash hollari odat tusini olgan edi.

Ayollarning turli davrlardagi ijtimoiy holatlari, ya’ni ayollarga bo‘lgan munosabatlar, erkak va ayollar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti tilda, nutqda va MXda o‘z ifodasini topadi. Taniqli dialektolog S.Ibrohimovning ta’kidlashicha, “... ishlab chiqarilgan mahsulot kishilarning qaysi jinsi tomonidan ishlatilishini bildiradi. Masalan, ketmonning ayollar tomonidan ishlatadigan yengil va kichikroq turini zayfona ketmon (rus.damskiy ketmen), katta (og‘irroq) turini mardona ketmon (rus.mujskoy ketmen) deyiladi. Bundan tashqari, yasalgan narsalarning qismlaridagi ayrim belgilar jonli narsalarning erkak va urg‘ochilik belgilariga nisbat berilib, o‘sha narsalarning otiga erkak va urg‘ochi so‘zlari qo‘shib aytiladi. Chunonchi, jujan suvluq‘i ikki bo‘lakdan iborat bo‘lib, bir bo‘lagining uchi qayrilib, tanaga birlashtirilgan; ikkinchi bo‘lagining uchi qayrilsa-da, tanaga ilakmagan bo‘lib, bu joydan birinchi bo‘lakning uchidagi halqasimon joyga solib qo‘yiladi. Shunga ko‘ra, birinchi bo‘lak - urg‘ochi suvluq, ikkinchi bo‘lak - erkak suvluq deb ataladi. Bunday nom degrezlikda erkak yang, urg‘ochi yang: duradgorlikda erkak chorcho‘p, urg‘ochi chorcho‘p tarzida uchraydi”²⁰.

¹⁹ Эгамбердиева Г. Аёл ва давр. - Тошкент: Мехнат, 1994, 18-б.

²⁰ Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. - Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1959, 166-167-б.

Shuningdek, yozuv mashinasida dastlab erkaklar ishlagan va uning nomi *mashina* bo'lgan. XX asrning boshlariga kelib bu ish bilan asosan “pishbarshnya” (“yozuvchi boyvuchcha ayol”) lar shug'ullana boshlaganlaridan keyin uning nomi *mashinkaga* aylangan²¹.

Ko'rinadiki, mehnat taqsimoti ish quollarining nomiga, ya'ni tilga ta'sir etmoqda. Nutq til birliklari evaziga qurilishligini inobatga oladigan bo'lsak, MXning jins jihatdan xoslanishi ma'lum bo'ladi. Ammo MXning mehnat taqsimoti bilan bog'liq holda jins jihatdan xoslanishning asosiy sababi mehnat, umuman faoliyat, ya'ni insonning doimiy ravishdagi mashg'ulotining uning jismiga va ruhiga ta'sir etishligidadir.

Ma'lumki, sobiq Ittifoqda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maorifiy jabhalarda, kishilar tafakkuri va dunyoqarashida muayyan o'zgarishlar ro'y berdi.

Xuddi mana shu tarixiy davrda O'zbekiston aholisi, jumladan, erkak va ayollar hayotida, mehnat faoliyati, turmush tarzida va MXda juda katta o'pirilishlar ro'y berdi.

1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston mustaqilligi to'g'risidagi dek-laratsiya e'lon qilinganidan keyin 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining X bob 46-moddasida “xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” deb yozib qo'yildi, 1999-yil ayollar yili deb e'lon qilindi. Zero, milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimiz tiklanib borgan sari ayollarga bo'lgan sharqona izzat-ikrom ham tobora ortib bormoqda.

V.M.Alpatov “Erkak va ayollar bir xil gapiradilarmi?” degan savolga javob izlar ekan, yapon ayollari ma'lumotlilik darajasi, ishlab chiqarishdagi ishtiroki va boshqa ko'pgina sohalarda erkaklarga yetib olganliklari, hatto o'zib ketayotganliklarini, shu bilan bog'liq holda, ularning MXdagi farqlar ham tobora kamayib borayotganligini ta'kidlab, xulosa sifatida quyidagilarni yozadi: “Erkak va ayollarning yapon tilidan foydalanishlaridagi farqli jihatlarning kelajagi

²¹ Колесов В. В. Язык города, с.101.

haqida yapon mutaxassislari shunday bir umumiy to'xtamga kelmoqdalar: farq tobora kamayib bormoqda, aftidan, bundan keyin ham kamayib boradi, biroq u farqning tez kunda barham topishligiga hech qanday asos yo'q. Yapon tilining erkak va ayollar nutqida qo'llanadigan variantlari, shubhasiz, ijtimoiy sabablarga bog'liq bo'lib qolaveradi"²².

2.3-§. Oilada maqollarning nutq vaziyatiga ko'ra qo'llanilishi

Insoniyatning shu kungacha bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'li ezgu maqsadlarga faqat va faqat uzluksiz ma'naviy tarbiya bilangina erishish mumkinligini isbotlab kelgan. Yosh avlod qalbi, didi, tasavvur va tafakkurini tarbiyalashda milliy merosimiz xazinasini, xususan, badiiy adabiyot muhim vositadir. O'zbek xalq og'zaki ijodida ham, tojik xalq og'zaki ijodida ham bu ikki xalq ma'naviyati, tarixi va qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan namunalardan biri bu xalq maqollaridir. Har birimiz bolaligimizdan maqollarni eshitib katta bo'lganmiz, ularga kundalik hayotimizda amal qilishga harakat qilganmiz. Maqollar har bir millat hayotida o'z o'rniga ega bo'lib ,xalqning turmush tarziga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi. Maqollar yillar davomida tildan tilga o'tib keluvchi komillik, odob, saxiylik, qobillik va jamiki yaxshi amallarga undovchi ezgu fikrlar majmuidir. Maqollar xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlar bo'lib, milliy tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo'ladi. Dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida maqollarchalik shaklan va mazmunan o'zaro yaqin janr deyarli yo'q. Folklorshunos olimlar maqollar va matallarni o'rganuvchi sohani paremiologiya deb atashadi. Paremiya-yunoncha paroimia-masal, ramzli hikoya.Ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan turg'un ibora; maqol, matal. Ma'naviyatimiz sarchashmalari bo'lmish o'zbek xalq og'zaki ijodi

²² Алпатов В. М. Япония. Язык и общество, с.80.

namunalari asrlar osha, avloddan avlodga, tildan tilga o'tib, kamol topib kelmoqda. Xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan xalq qo'shiqlari dostonlari, ertaklari, cho'pchaklari, latifalari, xalq maqollari, matal va topishmoqlari ana shu xalq og'zaki tilida yaratilgan va og'izdanog'izga o'tib, sayqallashgan. Maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda xalqning hayotiy muammolari – mehnat-mashaqqati, g'am-anduhi, rohat-farog'ati, muvaffaqiyat va mag'lubiyati, rasm-rusumlari, hamma-hammasi aks etib turadi. Bu ko'hna xalq ijodi qachon va qanday vaziyatda, kim tomonidan yaratilganini aniq aytish qiyin. Har holda bu sodda va murakkab, turg'un va barqaror iboralarni, ixcham va lo'nda, chuqur mazmunli naqlarning yaratilishida oddiy ijodkor xalq bilan birga olim-u ulamolarning, fozil-u fuzalolarning, xassos shoirlarning hissalarini ham katta bo'lganligi shubhasizdir. Odobiylik va axloqiylik, ezgulik va insoniylik kabi ma'naviy qadriyatlar haqidagi xalq maqol va naqlari donishmandlar hikmatlaridan iborat majmualarni o'qir ekanmiz, durdona fikrlar, azaliy hikmatlar, ma'naviy qadriyatlarimizning sharqona lo'nda va yorqin ifoda etilgan bitiklarga nisbatan o'zgacha bir ishtiyoq uyg'onadi. Inson nasli inson bo'lib, qo'li ishga, tili so'zga kelib, bir-biri bilan muomala qila boshlabdi-ki, bu ajib, chigal, borlig'i sirlardan iborat dunyoda yashash darsini o'qiydi va to shu kungacha bu dars tugamagan. Eng buyuk donishmandlar umrlarini ilm-u fanga bag'ishlab, jahon kezib, dunyo-dunyo kitob o'qib, olamdan ketar chog'i, men hayotdan hech narsa bilmay ketmoqdaman, deganlar. Ne ajab, hayot ilmini tugal anglamoqqa nafaqat bir inson umri, balki insonlar umri etmaydi. Yo'l yurib ketayotgan insofli odam bexosdan chuqurlikka toyib ketsa, o'rnidan turib, etak qoqib ketavermaydi. Men yiqildim, boshqalar yiqilmasin, deb chuqurni tekislab qo'yadi, yo bo'lmasa, birorta tayoqni suqib belgi qo'yib ketadi. Bu, ey yo'lovchi, ehtiyot bo'l, bu erda chuqur bor, ko'zingga qara, degan ishora bo'ladi. Bobolar hikmati ana shu tayoqdir. Odamlar boshqalarni o'ylab bekilgan buloq ko'zini ochadilar, daraxt ekadilar, masjid va madrasalar quradilar, yo'l solib, ko'priklar quradilarki mendan keyin dunyoga keluvchilar tashnalik azobini ko'rmasinlar, ochlikdan, oftob tig'idan qiynalmasinlar, imonli, ilm-ma'rifatli

bo'lsinlar deb shunlay qiladilar. Bobolar hikmati ana o'sha buloq, ana o'sha daraxt, ana o'sha masjid va madrasalar, ana o'sha yo'l va ko'priklardir. Hikmatli so'zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir. Hikmatli so'zlar, maqollar – noma'lum shoirlarning yurak satrlari, xalq iste'dodining masofa bilmas shu'ladari, zulm, adovat, haqsizlik ko'ksiga sanchiluvchi adolat tig'idir. Hikmatli so'zlar, maqollar – hech bir podsho e'lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitusiyadir. Shu paytgacha chop etilgan xalqimizning ezgu orzu-umidlari ifodalangan xalq maqollari, insonning ma'naviy dunyosini aks ettirgan hikmatlari o'zbek xalqining asrlar davomida tildan tilga, dildan dilga ko'chgan insoniy qadriyatlari qisqa satrlarda ifodalangan, hayotning turli -tuman tomonlarini o'z ichiga olgan kishilarni axloq-odobga, sabr-qanoatga, insof va saxovatga, to'g'rilik va rostgo'ylikka chorlagan xalq donishmandligi durdonalarida yuksak insoniy g'oyalar targ'ib qilingan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalq og'zaki ijodini o'zbek xalqisiz o'zbek xalqini esa, xalq og'zaki ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki ular xalqimizning qon tomiridir. Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. Nutqiy muomala salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz bo'lsa, keyingi suhbatga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ko'p asrlik odatiy an'analarimizga ko'ra, "Assalomu alaykum" ning javobi "Vaalaykum assalom" dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar

orasida salom ham, alik ham to‘mtaqlashib ketdi, ya’ni salom berish uchun ham, uning javobi uchun ham birgina “Salom” ishlatiladigan bo‘ldi. Bu tarixiy an’analarimizdan chetlashishdir. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: “Bitta salom bilan beshta narsaga – o‘zini engil sezish, shon-shuhrat topish, qut-barakali, ilmi bo‘lish va nihoyat uzoq umr” Madaniyatli kishi o‘z aybini bo‘yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so‘rashni ham bilishi lozim. 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston mustaqilligi to‘g‘risidagi dek-laratsiya e‘lon qilinganidan keyin 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining X bob 46-moddasida “xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” deb yozib qo‘yildi, 1999-yil ayollar yili deb e‘lon qilindi. Zero, milliy o‘zligimiz, azaliy qadriyatlarimiz tiklanib borgan sari ayollarga bo‘lgan sharqona izzat-ikrom ham tobora ortib bormoqda.

V.M.Alpatov “Erkak va ayollar bir xil gapiradilarmi?” degan savolga javob izlar ekan, yapon ayollari ma’lumotlilik darajasi, ishlab chiqarishdagi ishtiroki va boshqa ko‘pgina sohalarda erkaklarga yetib olganliklari, hatto o‘zib ketayotganliklarini, shu bilan bog‘liq holda, ularning MXdagi farqlar ham tobora kamayib borayotganligini ta’kidlab, xulosa sifatida quyidagilarni yozadi: “Erkak va ayollarning yapon tilidan foydalanishlaridagi farqli jihatlarning kelajagi haqida yapon mutaxassislari shunday bir umumiy to‘xtamga kelmoqdalar: farq tobora kamayib bormoqda, aftidan, bundan keyin ham kamayib boradi, biroq u farqning tez kunda barham topishligiga hech qanday asos yo‘q. Yapon tilining erkak va ayollar nutqida qo‘llanadigan variantlari, shubhasiz, ijtimoiy sabablarga bog‘liq bo‘lib qolaveradi”²³.

O‘z aybi uchun kechirim so‘rash o‘z g‘ururini erga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir. “Kechirasiz, mendan o‘tibdi” yoki “afv eting, bundan so‘ng takrorlamaslikka harakat qilaman” deyish bilan kishi o‘zining odobliligini namoyish etadi, xolos. Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri

²³ Алпатов В. М. Япония. Язык и общество, с.80.

xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan “xayr, sog‘ bo‘ling”, “xayr, ko‘rishguncha”, “xayr, omonlikda ko‘rishaylik” kabi ta’sirchan iboralar mavjud. Ko‘pchilik “Elakka kirgan xotinning ellik og‘iz gapi bor”, degan maqolni faqat salbiy ma’noda – ya’ni, ayollarning sergapligi, ustidan kulish ma’nosida tushunadi. Biroq, qo‘shnisinikiga elakka kirgan xotin nimani gaplashadi, nega shunday maqol to‘qilgan? Bu savolga hamma ham javob bera olmasa kerak. Ammo o‘tgan asrda yashab o‘tgan rus olimlari bizning nazarimizga kirmagan mavzu – turmush-tarzimiz, muloqot va muomala madaniyatimiz bilan ham qiziqishgan, bu haqda, hatto, kitoblar yozishgan. Jumladan, V.Nalivkin va M.Nalivkinalar “Farg‘ona erli o‘troq aholisi ayollarining turmushi haqida ocherk” nomli kitoblarida yuqoridagi maqolga shunday izoh beradilar: “Sart ayollari, hatto, ish bilan band bo‘lganlarida ham, bir joyda bir necha soat hech kim bilan gaplashmay, jim o‘tira olmaydilar. Agar ayolning uyiga biror odam kelmasa, uning o‘zi qo‘shnisinikiga chiqib, birpasgina bo‘lsa ham, u yoq- bu yoqdan gaplashib qaytadi... Ularning gapi maqollar, iboralar, qochiriqlar, ba’zan esa o‘ynoqi, mazmunli ertak va latifalarga boy bo‘ladi. Bularni gap orasiga yedirib yuborishga ularning hammasi usta bo‘ladi. Gapni topib gapirish, berilgan savollarga yoki tashlangan luqmalarga o‘rinli javob qaytarish va suhbatdoshini gapga solib qo‘yishni ular o‘zlari uchun faxr deb biladilar... Ha, aksariyat o‘zbek ayollari ko‘nglining ochiqligi, so‘zga chechanligi, dilkash va dilbarligi bilan boshqa xalq ayollaridan ajralib turadi. Ayniqsa, inson ko‘nglini asrash, unga muloyimlik bilan yo‘l topish bobida o‘zbek ayollarining oldiga tushadigani kam topiladi. Shunday xususiyati tufayli, hatto, qo‘shnisidan biror narsa, masalan, elak so‘rab chiqqan taqdirda ham gapni birdaniga “Elagingiz bormi?” yoki “Elagingizni berib turing”, deb boshlamaydi – muddaoga o‘tishdan avval uzoq daromad qiladi: hol-ahvol so‘raydi, harbiydagi o‘g‘lidan xat-xabar borligi bilan qiziqadi... Xullas, qo‘shnisining rayiga mos keladigan gaplar bilan uning ko‘nglini ovlaydi. Chiqib ketishdan oldin esa: “Voy, esim qursin, men elakka chiqqan edim”, - deb qo‘yadi beparvogina. Qo‘shnisining o‘z sha’niga aytgan iliq gaplaridan iyib ketgan mezbon

ayol esa, bunday paytlarda yo‘qni yo‘ndirishga, hatto, o‘zi ishlatib turgan eng zarur ro‘zg‘or buyumini in‘om etib yuborishga ham rozi bo‘ladi. Ayniqsa yangi kelin tushgan xonadondan mehmonlar arimaydi. shuni inobatga olgan xolda qo‘nilar bunday vaziyatlarda kelini qanday chiqdi ekan degan maqsadda serqatnov bo‘lib qoladilar, shu bilan birga kelinlarga nisbatan ishlatiladigan maqollarni ham nutqiy vaziyatga moslab qo‘llaydilar ularga:

[9] Islom dinida ayol — musulmonlar jamiyatidagi ayol o‘rni, shuningdek ayolning, ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi normalar va qoidalar tizimi.

Islomdagi ayollarning o‘rni musulmon jamiyatining ijtimoiy tuzilishini tanqid qilishning an‘anaviy nuqtasidir.[1] Shariatda (Islom qoidalari) erkaklar va ayollarning huquq va majburiyatlar sohasidagi rollari sezilarli farqga ega. Unda nikoh, ajralish, yuridik huquq, kiyim-kechak va ta‘lim masalalaridagi farqlar ifodalanadi.

Tarixda[tahrir | manbasini tahrirlash]

IV—VI asr arab ayollarining an‘anaviy kiyimlari.

Islom dinini ayollarning o‘rniga ta‘sirini baholash uchun Islomdan oldingi Arabistondagi ayollarning o‘rnini ko‘rib chiqish kerak. O‘sha paytdagi ayollarning holati ko‘p narsalarni orzu qilishga qolgan edi.[2] Qashshoqligi tufayli ota-onalar yangi tug‘ilgan qiz chaqaloqlarini o‘ldirganlari haqida dalillar mavjud.[3]

Islom arab jamiyatining tuzilishini o‘zgartirdi, gender rollarini isloh qildi. Professor William Montgomerining tadqiqotiga ko‘ra, Islom ayollarning

holatini yaxshilagan, ularga huquqlar bergan.[4] Ba'zi tadqiqotchilar Islomga ko'ra ayollar 20-asrgacha bo'lgan ba'zi G'arb mamlakatlariga qaraganda ko'proq huquqlarga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Masalan, fransuz qonunchiligiga muvofiq ayollarning huquq layoqatini cheklash faqat 1965-yilda bekor qilingan.[5] Garvard universitetining huquqshunos professori Noa Fildman, qayd etadiki:[6]

“ Inglizlar barcha mustamlakalarda bo'lgani kabi, o'z qonunlarini musulmonlarga ham qo'lladilar, natija esa bitta edi - ayolni islom qonunlari bergan huquqlaridan mahrum qilish. Buni gender tengligi yo'lidagi rivojlanish deb atash mushkuldir. ”

Oksford lug'atida islom paydo bo'lganidan keyin ayollarning o'rni umumiy yaxshilanganligiga ishora qilib, ayol shaxsining to'liqligi e'tirof etilganligini ta'kidlaydi.[7]

Nikoh islomga ko'ra, ayol roziligi majburiy bo'lgan „shartnoma“ sifatida ko'riladi. Ayollar meros olish huquqiga ega bo'lib, Islom tarqalishidan oldin bu huquq ilgari faqat erkakning qarindoshlariga berilgan. Annemari Shimmel aytadiki, „Ayol o'rnini islomgacha bo'lgan davr bilan solishtirganda, Islom qonunlari ostidagi ayol holatining bunday o'zgarishlari ulkan taraqqiyotni anglatardi; qonunga muvofiq ayol o'z boyligini boshqarish huquqiga ega bo'ldi“.[8]

William Montgomerining aytishicha, Muhammad s.a.v ni o'z davrining tarixiy kontekstida ayollar huquqlarini himoya qilgan va asosiy huquqiy kafolatlarni ta'minlash orqali ularning mavqeini sezilarli darajada yaxshilagan shaxs sifatida ko'rish mumkin.

Jhon Espositoning qayd etishicha, Muhammad s.a.v ayollarga ularning jamiyatdagi mavqeini oshirishga yordam beradigan huquqlar: oilaviy hayot, nikoh, ta'lim va iqtisodiy aloqalar sohasida huquq va imtiyozlar bergan.

Ammo shunga qaramay, ayollarning Islomdagi o'rnini umuman Qur'on g'oyalari emas, balki hukmron patriarxal madaniyat me'yorlariga to'g'ri kelardi.[9] Bir ayolning makri qirq tuyaga yukdir

Hayosiz ayol - tuzsiz ovqat

Uch ayol - to'rt g'iybat

Ayolning aqli uning go'zalligida, erkakning go'zalligi uning aqlida

Ayoldan haqiqatni so'rama

Dehqonning sigirini, bevaning qizini olma

Erning uyi dunyo, ayolning dunyosi - uy

Avliyo ham qo'shnisini qo'llar.

Ayolning sarishtasi —
Ro'zg'orning farishtasi.

Ayolning sunbuli — yigitning dili.

Beva xotinga Buxorodan it hurar.

Besh bola ustiga borsang bor,
Kundosh ustiga borma.

Bir kelin oldim, o'tirdim,
Ikki kelin oldim, tik turdim,
Uch kelin oldim, yugurdim.

Bir qizga yetti qo'shni — ota-ona.

Bir qinga ikki pichoq sig'mas,
Bir uyga — ikki xotin.

Biyaning Xotinning		yugurigi —		yaxshi, epchili.
Boy Bovcha		amr xamir		etmasa, etmas.
Bola Xotin	suysang suysang		— —	beshtkda, to'shakda.
Bolaga Xotinga	tegma, tegma,		balosi qasosi	chiqar, chiqar.
Bolali Bolasiz	uy uy		— —	bozor, mozor.
Bolali Bolasiz	uy uy		— —	jannat, minnat.
Bolali Bolasiz	uy uy		— —	xandon, zindon.
Bolali	uyda		gap	yotmas.
Bolali G'urbat	uyda	janjal	bo'lsa	ham, bo'lmas.
Bolali	uyda		sir	yotmas.

Bolali	uyda		o'g'rilik	yo'q.
Bolali	uyda		g'iybat	yo'q.
Bolali	uyda		g'urbat	yo'q.
Bosh		ikkov		bo'lmay,
Mol		ikkov		bo'lmas.
Boshim	ikki	—	molim	ikki.
Bo'z		yaktak		qichitar,
Yaxshi		xotin		tinchitar.
Bo'ldiradigan		ham		xotin,
O'ldiradigan		ham		xotin.
Bo'ri	hamsoyasiga		ola	qaramas.
Gilam	sotsang,		qo'shningga	sot,
Bir	chetida		o'zing	o'tirasan.
Do'sting	ham		—	ering,
Dushmaning	ham		—	ering.
Er	—		quyosh	yo'ldoshi,
Xotin	—		umr	yo'ldoshi.
Ering		qumchalish		bo'lsin,

Xotining		—		g'archalish.	
Yomon	xotin	olganning	yovi	uyida,	
Ikki	xotin	olganning	dovi	uyida.	
Yomon	xotin	eriga	do'zax	qilar.	
Yomon	xotin	o'lsa,	keng	to'shak	qolar,
Yaxshi	xotin	o'lsa,	mehnat-g'am	qolar.	
Yomon	xotin	hayitda	eridan	chiqar.	
Yomon		xotinning	o'ynashi	ko'p.	
Yomon		qo'shni	yovdan	yomon.	
Yon	qo'shni	—	jon	qo'shni.	
Yog'mas		bulut	elni	aldar,	
Yomon		xotin	—	erni.	
Jon		kuydirmasang,	jonona	qayda,	
Xotin		olmasang,	qaynona	qayda.	
Ikki	sigir	olganning	ayroni	bor,	
Ikki	xotin	olganning	vayroni	bor.	
Ikki		xotin		olibsang,	
Bir		baloga		qolibsang.	

Ikki Eshak	xotinlikning minganning		qulog'i —	tinmas, oyog'i.
Inoq	oilada		beshek	bo'shamas.
Itning Kelinning	yovi yovi		— —	devona, qaynona.
Itning	yomoni	to'shakdagidan	umid	qilar.
Yigitning Xotinning	ko'ngli ko'ngli	qolsa qolsa	— —	o'lguncha, tuqquncha.
Katta Kichik	— kelin		kelin —	uyda, to'yda.
Kelin	bilan	qaynona	— o't	bilan suv.
Kelin Tovushini		bo'yini tovdan		yashirar, oshirar.
Kelin Qaynona	bo'ldim bo'ldim	— —	qaynonamga kelinimga	yoqmadim, yoqmadim.
Kelin Kelin		yomon kelgan		emas, yomon.
Kelin		kelag'on		bo'ldi,

Ovul		kezag'on		bo'ldi.
Kelin		kelsa		uzoqdan,
Arba-arba		osh		kelar.
Kelin		kelsa		yaqindan,
Arba-arba		so'z		kelar.
Kelin		kimxob		kiyar,
Qaynona		qarg'ab		kuyar.
Kelin	kirgan	uyga	nur	kirar.
Kelin	—	qaynona		supurgisi.
Kelinim	bor	deb		kerilma,
Ish		buyursa,		erinma.
Kelinim		elakli		bo'ldi,
Elagi	—	tilakli		bo'ldi.
Kelinimning		yig'lagani		—
Eshagimning				hangragani.
Kelining	bitta	bo'lsa,	o'tirib	yeysan,
Ikkita	bo'lsa,		turib	yeysan,
Uchta	bo'lsa,		yurib	yeysan,
To'rtta	bo'lsa,		yo'rg'alab	yeysan.
Kelining	yaxshi	bo'lsa,	berdi	xudo,

Kelining	yomon	bo'lsa,	urdi	xudo.
Kelining		qayerlik		bo'lsa,
Mehmoning		shu		yerlik.
Kelinning		tili		yo'q
Qaynonaning		—		imoni.
<i>Katta-kelinuyda,</i>				
<i>Kichik</i>				<i>kelin—to'yda.</i>
<i>Kelin</i>	<i>bilan</i>	<i>qaynona</i>	—	<i>o't bilan suv.</i>
<i>Kelin</i>		<i>bo'yini</i>		<i>yashirar,</i>
<i>Tovushini</i>		<i>tovdan</i>		<i>oshirar.</i>
<i>Kelin</i>	<i>bo'ldim</i>	—	<i>qaynonamga</i>	<i>yoqmadim,</i>
<i>Qaynona</i>	<i>bo'ldim</i>	—	<i>kelinimga</i>	<i>yoqmadim.</i>
<i>Kelin</i>		<i>yomon</i>		<i>emas,</i>
<i>Kelin</i>	<i>kelgan</i>		<i>yer</i>	<i>yomon.</i>
<i>Kelin</i>		<i>kelag'on</i>		<i>bo'ldi,</i>
<i>Ovul</i>		<i>kezag'on</i>		<i>bo'ldi.</i>
<i>Kelin</i>		<i>kelsa</i>		<i>uzoqdan,</i>
<i>Arba-arba</i>		<i>osh</i>		<i>kelar.</i>
<i>Kelin</i>		<i>kelsa</i>		<i>yaqindan,</i>

<i>Arba-arba</i>		<i>so'z</i>		<i>kelar.</i>
<i>Kelin</i>		<i>kimxob</i>		<i>kiyar,</i>
<i>Qaynona</i>		<i>qarg'ab</i>		<i>kuyar.</i>
<i>Kelin</i>	<i>kirgan</i>	<i>uyga</i>	<i>nur</i>	<i>kirar.</i>
<i>Kelin</i>	—	<i>qaynona</i>		<i>supurgisi.</i>
<i>Kelinim</i>	<i>bor</i>	<i>deb</i>		<i>kerilma,</i>
<i>Ish</i>		<i>buyursa,</i>		<i>erinma.</i>
<i>Kelinim</i>		<i>elakli</i>		<i>bo'ldi,</i>
<i>Elagi</i>	—	<i>tilakli</i>		<i>bo'ldi.</i>
<i>Kelinimning</i>		<i>yig'lagani</i>		—
<i>Eshagimning</i>				<i>hangragani.</i>
<i>Kelining</i>	<i>bitta</i>	<i>bo'lsa,</i>	<i>o'tirib</i>	<i>yeysan,</i>
<i>Ikkita</i>	<i>bo'lsa,</i>		<i>turib</i>	<i>yeysan,</i>
<i>Uchta</i>	<i>bo'lsa,</i>		<i>yurib</i>	<i>yeysan,</i>
<i>To'rtta</i>	<i>bo'lsa,</i>		<i>yo'rg'alab</i>	<i>yeysan.</i>
<i>Kelining</i>	<i>yaxshi</i>	<i>bo'lsa,</i>	<i>berdi</i>	<i>xudo,</i>
<i>Kelining</i>	<i>yomon</i>	<i>bo'lsa,</i>	<i>urdi</i>	<i>xudo.</i>
<i>Kelining</i>		<i>qayerlik</i>		<i>bo'lsa,</i>
<i>Mehmoning</i>		<i>shu</i>		<i>yerlik.</i>

Xalqimiz hayotida bunday misollarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Maqola yozishdan asosiy maqsadi o'zbek xalq og'zaki ijodi janrlari: maqol, matal, ertak, latifa, topishmoq va boshqalarda nutq madaniyati masalalarining yoritilishini o'rganish va ularni tahlil qilish. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi: - nutq madaniyati va uning xalq og'zaki ijodida ifodalanishini o'rganildi; - maqollardan nutq madaniyatiga oid misollar to'plash va ularning tahlilini yoritildi; - ertak va rivoyatlardan nutq madaniyatiga oid misollar to'plash va ularning tahlili yoritildi; - latifalardan nutq madaniyatiga oid misollar to'plash va ularning tahlili yoritildi; - topishmoqlardan nutq madaniyatiga oid misollar to'plash va ularning tahlili yoritildi. O'zbek va tojik tilidagi xalq og'zaki ijodida nutq madaniyati masalalariga oid manbani to'plashda qiyosiy tahlil va tavsifiy metodlardan foydalanildi. O'zbek va tojik tilidagi xalq og'zaki ijodida nutq madaniyati masalalariga oid manbalar (bular: maqol, matal, ertak, doston, latifa, topishmoq va hikmatli so'zlar). O'zR Birinchi Prezidentining ma'naviy meros, milliy til va milliy madaniyatning rivojlanishi, taraqqiy etish yo'llari haqidagi nazariy qarashlari tashkil etadi. Zero, "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarlarida ta'kidlaganlaridek: "Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy izlanishimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikasiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanilish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu

maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz”. Ushbu maqolada quyidagi amaliy yangiliklar berildi: - har ikki tilda nutq madaniyati masalalarining xalq og‘zaki ijodida ifodalanishi o‘rganildi; - har ikki tilda maqollarga misollar topildi va ularning tahlili berildi; Badiiy tarjimada maqol, matal va idiomatik birliklarning o‘rni va ahamiyati xususida talaygina tadqiqotlar mavjud. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston tarjimashunoslik fanining asoschisi G‘aybulloh as-Salom, tarjimashunoslardan R.Fayzullayeva, E.Normurodov, G‘.Mahmudov, N.Namozov, S.Jabborov va boshqalarning nomini alohida ta’kidlash mumkin. Bu tadqiqotchilar “rus –o‘zbek”, “o‘zbek- nemis” , “ingliz-o‘zbek”, “nemis-o‘zbek” tillari misolida tadqiqot ishlarini olib borgan.Lekin “o‘zbek - tojik” tillari misolida aytarli bir tadqiqot ishlari olib borilmagan. Maqollar ulkan ma’noning lo‘nda gap bilan ifodalangan shaklidir, chunki birgina maqolda pand-nasihatchilik, odob, o‘y-qarash kabi fikrlar majmui jamlangan. Shunday hikmatli so‘zlar yoki maqollar borki ,ularni hamma biladi va foydalanadi. Agar bunday hikmatli so‘zlarga barcha kishilar ishonishmaganda edi, ular asrlardan-asrlarga o‘tib kelmasdi. Maqollar milliy koloritni ifodalovchi muhim vositalardan hisoblanadi. Har qanday tildagi maqollarga aynan mos keladigan variantlar mavjud bo‘lishi mumkin. Bu albatta, xalqlarning o‘ziga xos universalligidan dalolat beradi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Til-aql bezagi” maqoliga tojik tilidagi “Забон ороиши ақл аст” maqollari to‘g‘ri keladi. Yoki bo‘lmasa o‘zbek tilidagi “Til- aql tarozusi” maqoliga tojik tilida “Забон тарозуи ақл аст” kabi o‘xshash maqollar mavjud. Hattoki, ularning obrazli komponentlari ham aynan bir-biriga mos. O‘zbek va tojik tillari turli oilalarga mansub bo‘lsa-da, ularda bir-biriga mos bo‘lgan ko‘plab maqol, matallarni uchratishimiz mumkin. Asosan, ularning ichida til odobiga bag‘ishlangan maqollar ahamiyatga molikdir. Masalan:

O‘zbek tilida: Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar.

Tojik tilida: Сухани хуб, морро аз хонааш берун кунад.

O‘zbek tilida: Aytilgan so‘z -otilgan o‘q.

Tojik tilida: Сухани аз даҳон баромада мисли тири аз камон ҷаста.

O‘zbek tilida: Ko‘p gap-eshakka yuk.

Tojik tilida: Гапи бисёр як харро бор.

O‘zbek tilida: Yomon so‘zning qanoti bor.

Tojik tilida: Сухани бад бол дорад.

O‘zbek tilida: Issiq kiyim tanni iltar, Issiq so‘z jonni iltar.

Tojik tilida: Либоси гарм баданро гарм кунад, Сухани нек чоңро гарм кунад.

O‘zbek tilida: Achchiq savol berib, Shirin javob kutma.

Tojik tilida: Бо пурсиши талх посухи ширинро интизор нашавед.

O‘zbek tilida: Yolg‘onning umri –qisqa.

Tojik tilida: Умри дурӯғ кӯтоҳ аст.

O‘zbek tilida ham, tojik tilida ham maqollar ma’no jihatidan mardlik, do‘stlik, haqiqatgo‘ylik kabi ezgu fazilatlarni rag‘batlovchi turlarga bo‘linadi. Lekin til odobi, nutq odobiga bag‘ishlangan maqollarni o‘qir ekanmiz, bu ikki mushtarak xalq ham so‘zlash odobiga naqadar mas’uliyat bilan yondashganligini guvohi bo‘lamiz.

Bobga doir xulosalar

1. Har birimiz bolaligimizdan maqollarni eshitib katta bo‘lganmiz, ularga kundalik hayotimizda amal qilishga harakat qilganmiz. Maqollar har bir millat hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lib ,xalqning turmush tarziga ko‘ra o‘ziga xoslik kasb etadi. Maqollar yillar davomida tildan tilga o‘tib keluvchi komillik, odob, saxiylik, qobillik va jamiki yaxshi amallarga undovchi ezgu fikrlar majmuidir.

2. Ayollar o‘z nutqida ko‘proq undov so‘zlardan foydalangan va bu gaplardan taajublanish, xursandchilik, so‘roq ohangi kuchli. Yana ayollar o‘z nutqlarida aylanay, qoqindiq, o‘rgilay kabi so‘zlardan ko‘proq foydalanadilar va ular, asosan,

urg'uni cho'zib gapiradilar. Xuddi shu vositalar orqali erkaklar nutqi ayollar nutqidan ajralib turadi.

3. Oilada so'zlashuv madaniyati, ya'ni bolaning atrofidagi insonlar qay tarzda gaplashsa, bola ham shu til orqali muloqotda bo'ladi. Bolaning tilini rivojlantirish uchun, ularning nutqini aniq va ravon qilish uchun ota-onalar, o'qituvchilar tomonidan turli xil ishlar amalga oshiriladi. Ular bunday holatlarda, asosan, bolaga ko'proq she'rlar, qiyin so'zlarni o'qitishga harakat qiladilar. Bulardan asosiy maqsad yoshlarning nutq madaniyatini o'stirishdir.

III BOB. “OILA” TUSHUNCHASIGA OID MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

3.1-§. Turkiy xalqlar madaniyatida “oila” haqidagi maqollar

Turkologiya tilshunosligi o‘z ichiga juda ko‘p masalalarni oladi. Bu masalalar, o‘z izlovchisi, tadqiqotchisini kutmoqda. Jumladan, turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari va yaqinlik nomlari bo‘lib, o‘zbek va uyg‘ur (o‘zbek va uyg‘ur tili bir-biriga qanchalik yaqin bo‘lmasin, bu ikki millat tilida boshqa masalalar bilan bir qatorda, biz tekshirmoqchi bo‘lgan masalada ham bir-biridan farq qiladigan va ko‘p tomondan bir-biriga o‘xshashlik, yaqinlik va bir xillik xususiyatlari ham mavjud) tillarida bu sohada hali bironta jiddiyroq ish qilingani yo‘q. Vaqolonki, terminlarning bu gruppasi til asosiy lug‘at fondining eng qadimgi belgilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, F. Engels o‘zining «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» degan genial asarida oila formalarining u yoki bu shaklidagi qarindoshlik terminlarining ahamiyati to‘g‘risida: «ota, o‘g‘il va qiz, aka-uka, opa-singil degan nomlar faqat faxriy, juda jiddiy, o‘zaro majburiyatlar bilan bog‘liq va bu majburiyatlarning majmuasi mazkur xalqlarning ijtimoiy tuzumining muhim qismini tashkil etadi», deb yozgan edi. Bu nasabdoshlik terminlari sistemasining juda uzoq vaqtlargacha o‘zgarmasdan qolishini ham ko‘rsatib o‘tadi.

Slavyan, hind-yevropa tillaridagi qavm-qarindoshlik terminlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tekshirish ishlari o‘tgan asrning o‘rtalarida boshlandi va bu sohada dastlabki qadamlar qo‘yildi. Sovet davrida qam rus va slavyan tillari bo‘yicha ba’zi ishlar qilindi.

Turkiy tillar bo‘yicha qilingan dastlabki ishlar turkiy tillar gruppasiga kiruvchi biror xalqning tarixini uning etnografik xususiyatlarini tekshirish bilan bog‘lab, qavm-qarindoshlik terminlari ustida yo‘l-yo‘lakay to‘xtab o‘tilgan, xolos.

Turkologiyada qavm-qarindoshlik terminlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tekshirish ishlari endigina boshlangan bo‘lib, bir tilning qavm-qarindoshlik

terminlarini, ba'zi ishlarda esa turkiy tillarning ko'pchiligini bir-biriga qiyos qilish yo'li bilan tekshirib chiqqanlar.

O'zbek tilshunosligida bu masala to'g'risida qisman gapiriladi. Lekin qavm-qarindoshlikni anglatuvchi ota, ona, bola, o'g'il, siz, nabira kabi qon-qarindoshlik terminlarigina leksikologiya tarixi bilan bog'lab tekshiriladi va misol tariqasida ko'rsatib o'tiladi yoki o'zbek tili va uning shevalaridagi qavm-qarindoshlik terminlarini tekshirish, jiddiy ilmiy ish olib borish kerakligi, uning tilshunoslikdagi ahamiyati to'g'risida to'xtab o'tiladi.

O'zbek tilshunosligida keyingi vaqtlarda yaratilgan ilmiy ishlardan biri B.O'rinboyevning qavm-qarindoshlik terminlarining bir tomonlama xususiyatini, ya'ni undov, murojaat anglatuvchi so'zlar qatoridagi formasinigina tekshirishga bag'ishlangan asaridir. Albatta, bu ham o'zbek tilidagi qarindoshlik terminlari uchun juda oz material beradi. O'zbek tili tarixiga oid 1913- yilda chiqqan "Birinchi muallim" kitobining 23-24-betlarida esa qarindoshlarning umumiy ro'yxati berilgan.

Uyg'ur tilshunosligida esa bu sohada hali hech qanday ish qilingani yo'q. Faqat turkologik ishlarda uyg'ur tili uchun keltirilgan misollarnigina uchratish mumkin. Albatta, bu ishlarda keltirilgan misollar uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarining hozirgi ahvolini to'liq ifodalab bera olmaydi.

Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari to'g'risida L.A.Pokrovskaya, X.G.Yusupov va S.A.Burnasheva tomonidan yozilgan maqolalarnigina ko'rsatish mumkin. Bu asarlar turkiy tillardagi qavm-qarindoshlik terminlarini ma'no jihatidan tekshirishda ko'pgina ijobiy tomonlarga ega, bo'lsa ham, lekin o'zbek va uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarining hozirgi ahvoliga, unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki hozirgi o'zbek va uyg'ur tillari materiallarida qavm-qarindoshlik terminlari juda ko'p bo'lib, ularning ishlatilish doirasi, leksik, morfologik ma'nolari ham xilma-xildir. L.A.Pokrovskaya o'z ishida konkret bir turkiy tilni asos qilib olib tekshirmaydi, shuning uchun ham bu ish umumiy turkologik xarakterga ega. X.G.Yusupov esa hozirgi zamon boshqird tilidagi qavm-

qarindoshlik terminlarining ko‘rinishi, ularning dialektal xususiyatlarini ta’riflab bergan. Xuddi shu singari S.A.Burnasheva ham tatar tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarini ta’riflash va qisman boshqa turkiy tillardagi terminlarga yo‘l-yo‘lakay xarakteristika berib o‘tish bilan chegaralanadi.

Ma’lumki, har qanday termnlar, shu jumladan, qavm-qarindoshlik terminlari ham qanchalik turg‘un bo‘lmasin, zamon o‘tishi, jamiyatning o‘zgarishi, oila, nikoh formalarining yangi shakllari va ular o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishi bilan ishlatilib kelinayotgan qavm-qarindoshlik terminlarining ma’no doirasi ham kengayadi, yangi turlari paydo bo‘ladi.

O‘zbek va uyg‘ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari birdan paydo bo‘lgan emas, albatta. U o‘ziga xos tarixiy bosqichlarni bosib o‘tib, hozirgi ahvoliga kelgan. Hozirgi tilda qo‘llanilayotgan har bir termin paydo bo‘lgan vaqti jihatidan ham, turli funksiyalarda qo‘llanilishi va har xil o‘zgarish hamda yangiliklarni qabul qilish jihatidan ham o‘ziga xos tarixga egadir.

O‘zbek va uyg‘ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari hozirgi holga kelguncha ko‘p davrlarni va turli bosqichlarni boshidan kechirdi. Zamonlarning o‘tishi, o‘zbek va uyg‘ur xalqi hayotida yuz bergan zo‘r iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar bu tillarning lug‘at boyligini ham o‘zgartirdi, ko‘pgina qavm-qarindoshlik terminlari eskirib, iste’moldan chiqdi, bir turkum terminlarning ma’no doiralari kengaydi va o‘zgarishlarga uchradi.

Ma’lumki, o‘zbek va uyg‘ur xalqi o‘zining tarixiy taraqqiyot jarayonida turli sistemadagi tillarda gapiruvchi ko‘pgina xalqlar bilan birga hayot kechirdi, aralashdi. Shuning natijasida o‘zbek va uyg‘ur tili murakkab sharoitda shakllandi va uning lug‘at sostavi, shu jumladan, qavm-qarindoshlik terminlari ham boshqa tillarning leksik elementlarini — terminlarini o‘z ichiga olgan holda rivojlandi. Ammo bunga qaramasdan, o‘zbek va uyg‘ur tilining asosiy qavm-qarindoshlik terminlari saqlanib qoldi va ma’no doirasini kengaytirdi.

Qavm-qarindoshlik terminlari va nomlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan asosan ikki yo‘l bilan:

- 1) terminlar va nomlarning kelib chiqishi va taraqqiyoti;
- 2) terminlar va nomlarning hozirgi ahvoli, ko‘rinishi, leksik, grammatik xususiyatlari va ularning ma’no doiralari nuqtai nazaridan tekshirish mumkin.

Bunday tekshirishlarning birinchisi juda murakkab bo‘lib, tarixchilar, etnograflar va tilchilarning hamkorlikda ish olib borishlarini talab qiladi. Biz mana shu keyingisi ustida ish olib bormoqchimiz, ya’ni hozirgi zamon o‘zbek, uyg‘ur va boshqa turkiy tillar materiallari asosida qavm-qarindoshlik terminlarining bugungi ahvolini, uning leksik, grammatik xususiyatlarini, ma’no doiralarini yoritib bermoqchimiz.

Hozirgi zamon o‘zbek va uyg‘ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari o‘zlarining kelib chiqishi va ma’nosiga ko‘ra asosan uchta katta guruhlariga bo‘linadi:

I. Qon-qarindoshlik terminlari.

II. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlari.

III. Yaqinlik nomlari.

I. Qon-qarindoshlik terminlariga o‘zbek va uyg‘ur tilida, shuningdek, boshqa turkiy tillarda, ona, ota, aka, tog‘a, xola, buva (bobo), buvi, amma, nabira kabi ma’nolarni ifodalovchi terminlar kiradi.

II. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlarini er; xotin, kuyov, kelin, pochcha, boja, ovsin, qayin ona, qayin ota, quda, quda xola, quda buva; o‘gay ota, o‘gay ona, o‘gay bola singari terminlar tashkil etadi.

III. Yaqinlik nomlari deb atalgan bu guruh asosan o‘zbek, uyg‘ur tiliga xos bo‘lib, bu termin yuqoridagi ikki gruppada terminlardan butunlay farq qiladi, ya’ni bu tutingan so‘zi bilan — tutingan ota (+m); tutingan ona (+m); tutingan og‘ayni(+m); singari ifodalangan terminlar kiradi.

Terminlarning birinchi guruhi o‘z navbatida o‘z guruhidagi terminlar bilan birga — ota-ona, ota-bobo, tog‘a-jiyan, opa-singil, aka-uka, amma-xola kabi formalarda juftlashib, ko‘plik va jamlash ma’nolarini ifoda qiladi. Shuningdek, boshqa so‘z turkumlari bilan — katta buvi, o‘gay ona, qayin ota singari yangi

qavm-qarindoshlik terminlari va har xil affikslar olib otalik, enaga kabi yangi ma'noli so'zlarning yasashida asosiy manba bo'la oladi.

Turkiy tillardagi, shu jumladan, o'zbek va uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarini ifodalanishiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

I. Oddiy (tub) so'z bilan ifodalangan terminlar — ona, bola, qiz, aka, opa, jiyan, tog'a, nevara, bobo, buvi va b.

II Qo'shma so'z bilan ifodalangan terminlar — amnavachcha, qayin ona, qayin egachi, katta buva; o'gay ona, o'gay o'g'il, quda xola singari terminlarni kiritish mumkin.

Bu yerda ishlatilgan qavm-qarindoshlik va qon-qarindoshlik terminlari deb atalgan ibora ustida avtor tubandagi tushuntirishni eslatib o'tadi: Qavm-qarindoshlik deganda yuqorida keltirilgan uch guruh terminlarini tushunish zarur. Bu rus tilidagi «термин родства» ma'nosini ifodalaydi, ya'ni umum ma'noga ega. Ikkinchi qon-qarindoshlik termini esa rus tilidagi «термин родства по крови» ma'nosida yuritiladi. Bu umumiylikdan ko'ra, ma'lum bir gruppaga terminlarni o'z ichiga oladi.

Har bir tilda akslanayotgan milliy madaniyat ko'proq xalq og'zaki ijodi sanalgan maqollarda aks etadi. Til "ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyatni meros qilib qoldiradi. Shu qatorda o'ziga xos madaniy boy tajribani ham".

Bu tajriba qanday taraqqiy etgan bo'lishidan qat'i nazar unda ota-ona konsepti mavjud bo'ladi. Ota-ona insonni dunyoga keltiruvchi, uni shaxs sifatida kamol toptiruvchi inson ekanligi har bir jamiyatda ularga bo'lgan aksiologik qarashlarni dunyoga keltiradi. Maqollar har bir jamiyatning turmush tarzi, madaniy qarashlari hamda qadriyatlar tizimining o'ziga xos ekanligini belgilab beradi.

Jumladan, jamiyatdagi otaga bo'lgan munosabat mazkur jamiyatning madaniyat darajasi bilan bog'liqdir. O'zbek madaniyatida ota yoki onaga bo'lgan munosabat qadriyat darajasida bo'lib, uni lingvokulturologiyaning predmeti bo'lgan xalq maqollari misolida dalillash mumkin. "Zero, til olam va odam munosabatini o'zida aks ettiruvchi mohiyatdir".

Madaniyatning shakllanishida muhim omillardan biri bu dindir. Din xalqni va jamiyatni ma'lum bir tartibga undovchi saodat yo'lidir. Kishilik jamiyatining milliy-madaniy jihatdan shakllanishida uning o'rnini katta. Shu sababli turg'un birikmalarning semantikasida dinning ta'sirini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

1. *Amri padar arshdan ulug'.*
2. *Ota rozi - Xudo rozi.*
3. *Ota onasini tanimagan tangrisini tanimas.*
4. *Otang ishga buyursa nomozingni buzib ayt.*

O'zbek tilining izohli lug'atida "Arsh" leksemasi quyidagicha izohlanadi: Arsh 1 (taxt, shiypon) osmonning eng yuqori qavati, yuqorisi. Har uchala maqolda ham islom madaniyati yaqqol namoyon bo'lgan. "Arsh" – islom aqidasi ko'ra, yer, osmon, yulduzlar va kursiydan ham katta hajmdagi mavjudod. Olloh yaratgan barcha narsadan u buyuk va kattadir. Maqolda otaning so'zi yoki buyrug'i farzand uchun naqadar muqqaddas, rad etib bo'lmaydigan narsa ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Demak, islom dini ta'sirida shakllangan ushbu maqollarda "ota" konseptining ulug'lanishini ko'rishimiz mumkin.

4. *Otang ishga buyursa,*
Namozingni buzib ayt.
5. *Ota oldidan o'tma,*
Odob oldidan ketma.
6. *Ota oldida kek urma ,*

Odobingga chek urma.

Keltirilgan paremeologik fond namunalarini yuqorida berilgan maqollarning mantiqiy davomi sifatida baholash mumkin. Oldin o'git berilgan bo'lsa endi natija ifodalanmoqda.

O'zbek milliy madaniyatida "ota" konseptining "oila ustuni", "oila himoyachisi", "muhim qarorlarni qabul qiluvchi", "oilaning asosiy boquvchisi" kabi tashkil etuvchilari bor.

“Oilaning asosiy boquvchisi” “ota” konseptining asosiy assotsatsiyalaridan biridir.

1. Otangning chorbog‘ida qolguncha, Onangning oymog‘ida qol.

2. O‘roq tutib otang qolguncha, O‘ymoq tutib onang qolsin.

3. Otangning mol dunyosi bilan qolguncha, Onangning pilta-savati bilan qolgin.

Chorbog‘ o‘zbek tiliga tojik leksikasidan kirib kelgan bo‘lib, chor, ya’ni “to‘rt bog‘” degan ma’noni anglatadi. O‘ymoq – uncha katta bo‘lmagan chuqurlik, tor, bejirim; shevada esa “angishvona” ma’nosini bermoqda. 1-maqolda “o‘ymog‘i” leksemasi kichik joy ma’nosini anglatmoqda.

Ota va ona, chorbog‘ va o‘ymog‘ leksemalari nutqiy antonimiya hosil qilmoqda. 2- maqolda “oymog‘” leksemasi “oroq” bilan qarama – qarshi qo‘yilganini inobatga olsak, o‘ymoq izohli lug‘atda keltirilgan angishvona izohiga to‘la mos keladi. 3-turg‘un birikmada piltasavat madaniy koddir. Madaniyat kodlari tilda, asosan, xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg‘un o‘xshatish, metafora, qarg‘ish, duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda in’ikos etadi.

Madaniyatshunoslarning xulosasiga ko‘ra esa madaniyat kodlari madaniyatni tushunish kalitidir, u biron-bir shaklda kodlangan madaniy axborotni aniqlash imkonini beradi. Demak, madaniy kod ma’lum bir jamoalargagina tushunarli bo‘lgan muayyan mazmunni shartli va ramziy tarzda ifodalovchi takrorlanmas belgilar tizimidir. Piltasavat o‘zbek oilalarida foydalaniladigan uy ro‘zg‘or buyumidir. Pilta – charxda ip yigirish uchun piltakachda yumaloqlangan bir bo‘lak paxta. Bunday paxtalarni savatga solib qo‘yib, birma-bir olib ishlatardilar. Piltasavat leksemasi “Otangning bog‘-u rog‘i bilan qolguncha onangning piltasavati bilan qol” maqolida asosiy mazmunini ifodalashda yordamchi vosita bo‘lib kelmoqda. Uning tushunilishi alohida bir madaniy tahlilni taqozo etadi. O‘zbek madaniyati bilan, uning turmush tarzi bilan tanish bo‘lmagan

kishi bu maqolni tushuna olmaydi. Shuning uchun ham uni madaniy kod sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Mazkur maqollarda otaning asosiy boquvchisi ekanligi bilvosita ifodalanmoqda. Bu tagma'no "chorbog'", "o'roq", "mol dunyo" so'zlari bilan voqelanmoqda. Zero, qadimda erkaklar ishlagan, ayollar esa xonadon yumushlari va farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lgan. Lekin ushbu maqollardaga asosiy hukm bu emas. Unda ona olamdan o'tib ketsa, farzandlarni ota eplashi qiyin kechishi, odatda ayoli olamdan o'tgan erkaklarning yana turmush qurishi va bu holat har doim ham farzandlarga yoqmasligi kabi xalqning tajribalari aks etgan. Turmush o'rtog'i olamdan o'tgan ayollar esa har qanday holatda ham farzandlari uchun yashaydi, o'zbek madaniyatida deyardi oila qurmaydi. Shuning uchun ham xalq tilida quyidagi kabi maqollar mavjud: Onali yetim gul yetim, Otali yetim shum yetim.

Maqollarda nafaqat qadriyatlar, balki achchiq hayotiy tajribalar, boshdan o'tkazilgan sinovlardan chiqarilgan achchiq xulosalar ham o'rin olishi yuqoridagi maqollarda aks etganini ko'rib chiqdik. Bu kabi achchiq hayotiy tajribalardan chiqarilgan xulosalar millatlararo mushtaraklikka ega. Masalan, rus lingvomadaniyatida: Без отца полсироты, а без матери и вся сирота maqoli mavjud bo'lib, u o'zbek tilidagi ushbu maqolning muqobilidir: Otasiz yetim gul yetim, onasiz yetim chin yetim. Madaniyatlararo ushbu mushtaraklik ona har qanday shaxslar madaniyatida mehr timsoli ekanligining isbotidir.

Maqollar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, o'zbek xalq maqollarida ota va ona bir-biriga zid qo'yiladi, hamda nutqiy antonimiyani tashkil etadi. Aslida, til sathida ota va ona so'zlari antonimlikni hosil qilmaydi. Bu kabi bir tushunchaning ikki tomonini anglatuvchi ota-ona, aka-uka, o'g'il-qiz kabi so'zlar o'zaro korrelyativ munosabatdagi so'zlar deyiladi: "Antonimlarni umumiy giperonimga ega giponimlarning o'zaro munosabatidan farqlash lozim. Masalan, umumiy jins giperonimga ega ayol va erkak, farzand giperonimi bilan umumlashadigan o'g'il va qiz giponimlari antonimik juftlikni hosil qila olmaydi. Albatta, ushbu

leksemalar yagona differensial semasi bilan farqlanishi mumkin. Antonimik munosabat hosil bo'lishi uchun esa qarama-qarshilik bitta mohiyatning, hodisaning ichida bo'lishi va yana ikki leksema tarkibidagi yagona farqlovchi semalar ham zid bo'lishi kerak. O'g'il va qiz, ota va ona, tog'a va xola leksemalari «erkak» va «ayol» semalari asosida (farqlanadi) zidlanadi. Bizningcha, erkak va ayol bir hodisaning qaramaqarshi tomonlari emas, bir giperonimga ega ikki xil hodisadir”.

Maqollardagi nutqiy antonimiyaning ko'p kuzatilishining asosiy sabablaridan biri – millat o'zaro zid bo'lmagan narsa, belgi-xususiyat, harakatlarni bir-biriga solishtiradi, zidlaydi. Shu tariqa maqollarda nutqiy antonimiya hosil qilinadi.

Xalq ota va ona so'zlarini bir-biriga zidlar ekan, otaning qat'iyati va onaning mehribonligi ko'proq oppozitsiya belgisi bo'lib keladi: Ota qarg'ishi oq, Ona qarg'ishi do'q. Maqolda otaning qarg'ishi o'qqa, onaning qarg'ishi do'qqa o'xshatilmoqda. Mazkur o'xshatish orqali metafora yuzaga kelgan. Bu o'rinda otaning qarg'ishi o'q kabi tez yetib boradi va shikastlaydi, degan ma'no asosida ko'chim hosil bo'lmoqda. Bu o'rinda lisoniy emas nutqiy metafora haqida so'z yuritish lozim. Onaning qarg'ishi otanikiga nisbatan kuchsiz ekanligi uning do'qqa qiyoslanganidan ma'lum.

Gruzin lingvomadaniyatida ham shu kabi turg'un birikmani uchratish mumkin.

Ota qarg'asa soqoli ta'kidlaydi, Ona qarg'asa qalbi duo qiladi.

Ma'lumki, o'zbek madaniyatida o'g'il farzand otaning o'rnini bosuvchi shaxs sifatida ifodalanadi. Qiz farzand esa onaga mengzaladi: *Otaning aksi o'g'ilda, Onaning aksi qizda ko'rinadi. Onasiga qarab qizini ol.*

Qozoq lingvomadaniyati namunasi bo'lgan quyidagi maqolda ham ota-o'g'il munosabati yuksak ekanligini ko'rishimiz mumkin: *Otadan o'g'il qolsa, demak, u yashamoqda, Otadan qiz qolsa, demak, undan iz qolibdi.*

Yuqorida keltirilgan qozoq va o'zbek lingvomadaniyatiga tegishli maqollarda ham umummadaniy qarashlarni ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'zbek va

qozoq xalqining umumiy turkiy madaniyati, umumiy e'tiqodi, yaqin hudud, yaqin qo'shnichilik, bir til oilasiga mansublik kabi omillar bilan izohlanadi.

O'zbek madaniyati tarixidan ma'lumki, ota-qiz munosabati go'zal tarbiya ta'sirida vujudga keladi. O'g'il va ota munosabati esa o'zgacha tartib asosida quriladi. Ota o'g'ilni hayotga tayyorlovchi eng muhim shaxs etib ko'rsatiladi. Ushbu fikrimini quyidagi maqollar orqali tasdiqlash mumkin: *Otalik o'g'il – egalik qil. Otasiz o'g'ilning og'zi katta.*

Chechen lingvomadaniyatida esa boshqa bir munosabat ifodalangan maqollarni ko'rishimiz mumkin: *Qiz chiroyli bo'lsa, otaning nomi mashxur bo'ladi yoki chiroyli qiz otasini mashxur qilar.*

Ma'lumki, Checheniston Alaniya davlati parchalanishidan vujudga kelgan kichik bir davlat. Aholi soni 1 mln 230 ming. Lekin shunga qaramay, o'zining yuksak madaniyati va lingvomadaniyatiga ega davlatlardan biridir. Chechen madaniyatida ham o'zbek madaniyati qizning roziligi otasidan so'raladi. Keltirilgan maqol mazmuni shu ma'noni ifodalaydi. O'zbek va chechen madaniyatidagi bunday umummadaniy o'xshashliklar bu ikki xalqning bir dinga, ya'ni islom diniga etiqod qilishi natijasidir. Lekin o'zbek lingvomadaniyatida bu maqolga muqobil mavjud emas. Chunki o'zbeklarda otaning roziligi ayollar orqali so'raladi.

Xullas, o'zbek tilida "ota" komponentli maqollarda otaning ulug'lanishi, unga itoat qilish farzandlar uchun burch ekanligi, otaning mehridan esa onaniki ustun ekanligi ifodasini topgan.

3.2-§. Ingliz va o'zbek tillarida "oila" tushunchasiga oid maqollarning lingvokulturologik tahlili

Har bir davlatning eng asosiy tashkil etuvchilardan biri insonga bolaligidan ma'naviy qadriyat fazilatlarini sindiruvchi muqaddas narsa oila institutidir. Har bir madaniy jamiyatni, har bir xalqni oilasiz tasavvur qilish mumkin emas. Har bir sotsium oila har tomonlama

rivojlanishiga, uning poydevori mustahkam bo'lishiga, bu dargohning har bir a'zosi bir-birini qo'llab quvvatlanishiga va o'zaro tushunishiga erishish uchun intiladi. Prezident Sh.Mirziyoyev oila haqida quyidagicha ta'kidlaydi: "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, inson, avvalambor qayerda ishlashidan qat'iy nazar, agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi".

Oila yaxshilik, qarindoshlik, insonparvarlik, qayg'udoshlik kabi tushunchalar bilan bog'liq holda qadriyat kategoriyalarining ko'p qirrali tizimini o'zida mujassam etadi. Millat mentaliteti, ma'naviy madaniyati, uning dunyoni idrok etishiga va dunyoqarashiga to'liq bog'liq bo'lgan oila, oilaviy munosabatlar orqali belgilanadi. Shubhasiz, oilaning eng asosiy vazifalaridan biri go'daklikdan bolalar qalbiga o'z xalqining ma'naviy qadriyatlarini singdirishdir (bu vazifa asosan betakror xalq hikmatlari orqali amalga oshadi).

O'zbekistonda oila muqaddas hisoblanadi. U – daxlsiz, har qanday vaqtda ham shak-shubhasiz jamiyatning bebaho qadriyati, boyligi. O'zbek oilasi insonning dunyoga kelishi, voyaga yetishi, tarbiyasi beshigidir. Tayanch, suyanch, qo'rg'on sifatida oila o'z farzandlarini go'dakligidan to qarib, dunyodan o'tib ketgunga qadar bag'rida avaylab asraydi, ardoqlaydi. Oila a'zolari insonning vafotidan so'ng ham uni eslab, haqqiga duolar o'qishadi. O'zbeklarda oilani ko'z qorachig'iday saqlash, obro'yiga obro' qo'shish, er va xotinning nikoh ahdini bekor qilishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha yozilmagan qonunlar borki, ularga oila a'zolari bajonidil bo'ysunishadi. "Milliy ma'naviyatimizga mos odob-axloqqa tayangan o'zbek oilasi o'zining barkamolligi, farovonligi va mustahkamligi bilan butun dunyoga namuna maktabi bo'lishi uchun mustahkam poydevorga ega".

Oila munosabatlarida kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, katta avlod vakillarining obro'yini saqlash va ularni qadrlash, oilaviy an'analarning, tartib-intizom, odob-axloq qoidalarining uzviyligi va davomiyligi,

onaning muqaddasligi, uning oila o'chog'ini saqlash va farzandlar tarbiyasidagi o'ta muhim o'rni, otaning oila boshlig'i sifatidagi roli, javobgarligi kabi qator hayotiy tamoyillari o'z o'rnini topgan. Etnografiya fanining dalolat berishicha, qadimda odamlar qabila va urug'larga birlashib yashashgan. "Urug'chilik tartiblari oila-nikoh munosabatlarida ham yaqqol ko'rinib turadi. O'g'il uylantirishda yoki qizini erga berishda oila boshlig'i oqsoqolning ijozatini oladi. Ko'pchilik oqsoqollar o'z ixtiyoriga bo'ysungan urug'larning kelib chiqishlarini va ularning ajdodlarini yaxshi bilishgan. Shuning uchun urug'lardan biron kishi uylanmoqchi bo'lsa, kuyov-kelinning ajdodlarini oqsoqol, albatta, bilishi lozim bo'lgan".

O'zbek tilida *oila* so'zi polisemantik leksema. Asli u arab tilidan o'zlashgan. Arabcha) عائلة 'ā'ila(ning lug'aviy ma'nosi – "bola-chaqa, xonadon; urug', avlod". Hozirgi o'zbek tilida u quyidagi ma'nolarga ega:

1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon.

2. *ko'chma*. Bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko'p kishilar, xalqlar, mamlakatlar.

3. O'simliklar va hayvonlar sistematikasida tuzilish jihatidan bir-biriga o'xshash, kelib chiqishi jihatidan ham o'zaro yaqin bir necha urug'ni o'z ichiga olgan guruh.

4. Qardosh tillar guruhi.

5. *So'zlashuv tilida*. Rafiq, xotin.

"Oila" tematik guruhiga kiruvchi terminlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning ko'pi *ona* so'zi bilan bog'liq. I.Jabborovning yozishicha: "Maishiy turmushda ayrim urf elementlari ibtidoiy onalik (matriarxat) urug'iga borib taqaladi. Masalan, o'zbek oilasida hozirgacha ona tomonidan qarindoshlarning, ayniqsa, tog'aning roli katta. Bunday holat etnografiyada *avunkulat* nomli oila-nikoh tartiblari bilan bog'liq bo'lib,

tog‘a-jiyanlar munosabatlariga alohida e‘tibor berilishi *matrilokal* tartiblaridandir. Tog‘a jiyanning beshik va sunnat to‘ylaridan to uylanguncha barcha tadbirlariga bosh bo‘lib yordamlashib turishi shart bo‘lgan. Avunkulat va yoshiga qarab guruhlash tartiblarining ayrim elementlari qavm-u qarindoshlik atamalarida ham o‘z ifodasini topgan. Masalan, o‘zbeklarda ona va ota tomon qarindoshlar nomi farqlangan: onaning aka-ukalari jiyanga nisbatan *tog‘a* hisoblansa, otasining aka-ukalari *amaki* deb nomlangan. Tog‘aning mavqei amakidan baland bo‘lishi qadimiy avunkulat qoidalarining aks-sadosidir. Onaning opa-singillariga *xola* deb, otanikiga *amma* deb murojaat qilingan. O‘zidan katta o‘g‘il birodariga *aka*, kichigiga *uka*, ayollarning kattasiga *opa*, kichigiga *singil*, akasining xotiniga *kelin oyi* yoki *yanga*, ukasining xotiniga *kelin*, opasining eriga *pochcha (yazna)*, singlisining yoki qizining eriga *kuyov*, ota-onasining otasiga *bobo (buva)*, onasiga *momo (buvi)*, aka-ukalarinig farzandlariga yoshiga qarab *aka* yoki *uka*, opa-singillarniki – *jiyan* va hokazo nomlar ishlatilgan”.

“O‘zbek oilalarining eng ajoyib tarixiy an‘analarida bola tarbiyasi alohida o‘rinni egallaydi. Hozirgi davrda oila va oilaviy munosabatlarda demokratik tartiblarning o‘rnatilishini, oila a‘zolari orasidagi, ayniqsa, ota-ona va bolalar, bobo-momolar va avlodlar, aka-uka va opa-singillar orasidagi an‘anaviy munosabatlarni o‘rganish nihoyatda dolzarb va foydali masala desa bo‘ladi. Qadimda o‘zbeklarda yoshiga, jinsiga va tabiatiga qarab bola tarbiyasiga alohida e‘tibor berilgan. Masalan, o‘g‘il bolalarga yoshligidan otalar urug‘ining davomchisi, merosxo‘ri, oila or-nomusi va iftixori, himoyachisi, qizlarga nisbatan ustun turadigan erkaklik fazilatlarini ongiga singdirib, qizlarga esa bo‘lajak ona va uy bekasi vazifasini ado etuvchi shaxs sifatida tarbiya berishgan. Asta-sekin voyaga yetishi bilan o‘g‘il bola ota ta’sirida, qiz bola ona ta’sirida muayyan tartiblarga o‘rgatila boshlangan”.

Bola tarbiyasiga bag'ishlangan paremiologik birliklarda yuqoridagi fikrlar o'z isbotini topgan. O'zbek tili lug'at boyligida "oila" paremiologik maydonini *ulyanish, er (tushmush)ga chiqish, nikoh, oila, ro'zg'or, uy, pusht, jon, o'z, xesh, jigar, tomir, urug', tuxum, tuqqan, tug'ishgan, og'ayni, urug'-aymoq, kindikdosh, tomirdosh, ota, padar, ona, ota-ona, bobo, momo, buva, aka, uka, og'a, ini, og'a-ini, opa, singil, egachi, nevara, tog'a, xola, amma, jiyan, er, chol, yo'ldosh, xotin, kampir, er-xotin, yor, o'gay, o'ynash, ikki xotinlik, qo'sh xotinlik, kundosh, quda, ovsin, bola, farzand, o'g'il, qiz, yetim, beva, yesir, qaynona, qaynata, qayni, qaynog'a, qayinegachi, qaynsingil, kelin, kuyov, yanga, pochcha, boja* leksemali xalq maqollari tashkil etadi. Bu maqollar qatoriga mazmunan bir xil yoki yaqin bo'lganligi uchun ba'zi zoonim, fitonim, ornitonim va insekt (hasharot) komponentli paremiyalar va *oila* leksemasi ishtirok etmagan, lekin mazmuni bilan "oila" tematik guruhiga kiruvchi "*Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas*" kabi naqlar ham kiritildi.

"Oila" semantik maydoniga kiruvchi o'zbek maqollari ifodalagan o'z va majoziy ma'no va mazmunlar butun tafsiloti bilan ko'rib chiqildi.

Inson paydo bo'libdiki, til uning muloqotiga xizmat qiladi. Insonning jamiyatdagi o'rnini ham til belgilaydi. Rus adibi B.Dovlatov e'tirof etganidek: "Inson shaxsiyatining 90% ni til tashkil etadi". Til qachon vujudga kelganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. U hozirga qadar o'rganilib, tadqiq etilib kelinmoqda. Tilni o'rganuvchi sohalar majmuyi tilshunoslik hisoblanadi. Bugungi tilshunoslik zamonaviy yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Masalan psixolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturalogiya, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi sohalar tilshunoslikning muayyan yo'nalishlarini o'rganmoqda. Ushbu sohalar bir-biriga uzviy bog'liq hisoblanadi. Etnolingvistika va psixolingvistikani lingvokulturologiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Lingvokulturologiya-tilshunoslikning mustaqil yo'nalishlaridan biri bo'lib, 20-asrning 90-yillarida vujudga kelgan. Lingvokulturologiya lotinchadan *lingua* – "til" va *cultus* – "ta'zim qilish, hurmat qilish" ma'nolarini anglatadi. Tadqiqotchi

olimlarning qayd etishlaricha “lingvokulturologiya” atamasi V.N.Teliya rahbarligida Moskva frazeologik maktabi (Y.S.Stepanova, A.D.Arutyanyov, V.V.Vorobyov, V.Shaklien, V.A.Maslov) tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan.

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o‘zaro aloqasini, uzviy bog‘liq jihatlarini, tilda aks etadigan xalq madaniyatining ko‘rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiyaning ayollar nutqiga xos bo‘lgan jihatlari alohida e‘tiborga molikdir. Ayollar nutqidagi madaniylik inson ruhiyatiga so‘z bilan ta‘sir o‘tkazish lingvokulturologiyaning o‘ziga xos jihatlaridan biri sanaladi. Ushbu sohada ayollar nutqi haqida gap ketganda, bevosita gender tafovutlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Nutq uslublari, nutqiy xulq-atvor ko‘rinishlari, nutqiy muomala modellarining tanlanishi ayol va erkakning nutq jarayonidagi eng muhim farqlanish jihatlari hisoblanadi. Mazkur holatda uslub deganda lingvistik xususiyatlar majmuyi tushuniladi-fonetik, ritm, intonatsiya, morfologik, sintaksis, leksik xususiyatlar erkak yoki ayollarga xos nutqiy xulq-atvor bilan tasvirlanadi. Ayollar erkaklarga nisbatan tezroq, ko‘proq, ifodali gapirishlari mumkin. Ayollar so‘zning oxirini “yutib yuboradilar”, erkaklar esa, aksincha, ayollar o‘ziga xos ohangda so‘zlashishi mumkin. Shuningdek, ayollar nutqiga ularning qaysi millat vakilasi ekanliklari ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Masalan, G‘arb ayollari savol berib suhbatni davom ettirishga suhbatdoshiga dalda berishga, suhbatni qisqa javoblar bilan qo‘llab turishga moyil bo‘ladilar. Sharq ayollarining nutqi G‘arb ayollari nutqidan ba‘zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Kattalarga hurmat, shirin muaomilalilik, andisha, hayo va hamiyatlilikning beqiyos darajasi ularning nutqini bezovchi xususiyatlar hisoblanadi. Ayollar nutq madaniyligida bir holat borki, ayollar qarshi jins vakillariga nisbatan bo‘ysinuvchanlik xarakteriga egadirlar.

Tahlilga tortilgan ona ma‘nosini ifodalovchi maqollar soni ingliz tilida 18 ta, o‘zbek tilida 41 tani tashkil etadi. Ingliz tilidagi maqollarda ona mubolag‘a bilan ikkinchi Xudoga tenglashtiriladi: *A man’s mother is his other God* (Inson uchun ona – ikkinchi Xudo). Ona kata-yu kichik, qiz-u o‘g‘il, ya‘ni har bir inson uchun

mo‘tabar, umid bog‘lanadigan insondir: *The mother’s side is the purest* (Ona eng ishonchlidir).

Qator o‘zbek xalq maqollarida onaning muqaddasligi, buyuk zot ekanligi aytiladi: *Yoshlikdan odob saqla, ona sutini oqla; Gung bolaning gapini kar onasi tushunar*. Onaga hech kim, hech narsa teng bo‘lolmaydi: *Ming ignani yig‘nasang, tugma bo‘lmas, ming ammani yig‘nasang, ona bo‘lmas*. Ingliz tilida onaning eng kerakli inson ekanligi *The hand that rocks the cradle tides the world* (Beshikni tebratayotgan qo‘l dunyoni boshqaradi) paremiyasida ochib beriladi. Bu xislat o‘zbek tili paremiologiyasi uchun ham xosdir: *Ona olamning faxridir*.

Navbatdagi paremiyada ham uning bebaho zot ekanligi ta‘kidlanadi: *An ounce of mother is worth a ton of priest* (Onaning unsiyasi bir tonna ruhoniyaning afzal). O‘zbek etnosida ona va bola chambarchas bog‘liq: *Ona – daraxt, bola – meva; Bola – loy, ona – kulol* “Xalqimizda **“Ona bilan bola – gul bilan lola”** degan chiroyli maqol bor. Haqiqatan ham, ona va bola sog‘lom bo‘lsa, oila tinch, hayotimizda fayz-baraka, ishimizda unum bo‘ladi”.

Ingliz sotsiumida ona mehrining juda kuchliligi haqida ham paremiyalar mavjud: *Mother’s love never ages* (Onaning muhabbati hech qachon eskirmaydi). Dunyoda hech bir narsa ona mehribonligiga teng kelmaydi: *A mother’s love is best of all* (Ona mehri eng kuchlidir). O‘zbek onalari ham bu dunyoda “bolam meniki” deb, o‘zini suvga ham, cho‘qqa ham uradi, shuning uchun:

Meniki deganning mehri issiq. Dono o‘zbek xalqining *Onangga boshingni xam qil, otangga gapingni kam qil*, degan naqlida ham onaning, ham otaning qadri, qimmatini va ulug‘ligi o‘z ifodasini topgan. Quyidagi maqolda motiv sifatida ona o‘z bolalari uchun hamma narsaga tayyor ekanligi va uning ilohiy kuchi o‘z ifodasini topgan: *A mother’s love will draw up from the depth of the sea* (Ona mehri dengiz tubidan ko‘tarib chiqadi). O‘zbek elida ota-ona duosi barcha kulfatlarga qalqondir: *Ota-ona duosi o‘tga, suvga botirmas*.

Inglizlarning fikricha, qizlar onalarni takrorlaydi, chunki ular onalariga o'xshashadi: *Like mother, like daughter* (Ona qanday bo'lsa, qizi ham shunday). Quyidagi o'zbek maqollari orqali bolaning, asosan qiz bolaning kelajakda kim bo'lishi, qanday fe'l-atvorga ega bo'lishi uning yoshligida onadan olgan tarbiyasiga bog'liq, onasi yomon bo'lsa, qizning fazilatlaridan qat'i nazar, bo'lajak oila baxtli bo'lolmasligi uqtiriladi: *Erka tutsa onasi, taltayadi bolasi, to'g'ri tutsa onasi, yurtga ega bolasi; Onasini ko'rib, qizini ol; Terakka qarab tol o'sar, onaga qarab qiz o'sar.* Ingliz maqollarida bolalar katta bo'lganda ham onalariga g'amxo'rlik qilmasliklari aytiladi, lekin har qanday sharoitda onalar moddiy va ma'naviy jihatdan bolalarini tashlab qo'ymaydilar: *A mother can take care often children, but sometimes ten children can't take care of one mother* (Ona o'nta bolasi haqida g'amxo'rlik qilishi mumkin, ammo ba'zan o'nta bola bitta ona haqida g'amxo'rlik qilaolmasliklari mumkin). O'zbeklarda ona har doim kechirimli, boladan esa bu holat hamma vaqt ham kutilmasligi aytiladi: *Ona – qum, bola – tosh. Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngla dalada* hikmati bola ona haqida o'ylamasa-da, lekin onaning qalbi har doim bolada ekanligi uqtiriladi.

Ingliz paremiologik lug'atlarida “**nurse**” (enaga, boquvchi) leksemali maqollar ham uchraydi. U ona obraziga nisbatan qarama-qarshi qo'yiladi: *Nurses put one bit in the child's mouth and two in their own* (Enagalar bola og'ziga bir bo'lak solsa, o'zining og'ziga ikkita soladi); *One year a nurse and seven years a daw* (Bir yil enagalik qiladi, yetti yil isqirt qiladi). O'zbek maqollari orasida bunday mazmunli naqlar uchramadi.

Alohida ingliz maqollarida *mother* leksemasi orqali mavhum tushunchalar majoziy ma'noda konkretlashadi: *Poverty is the mother of health* (Kambag'allik – sog'likning onasi); *Trust is the mother of deceit* (Ishonch – yolg'onning onasi); *Experience is the mother of wisdom* (Tajriba – donolikning onasi). O'zbek maqollarida ham inglizlarga xos yuqoridagi analogik hodisa

kuzatiladi: *Muhabbat – ittifoqning onasi; Pulning onasi – tiyin; Takrorlash o‘qishning onasidir.* Demak, islom dini ta’sirida shakllangan ushbu maqollarda “ota” konseptining ulug‘lanishini ko‘rishimiz mumkin.

7. *Otang ishga buyursa,
Namozingni buzib ayt.*
8. *Ota oldidan o‘tma,
Odob oldidan ketma.*
9. *Ota oldida kek urma ,
Odobingga chek urma.*

Keltirilgan paremeologik fond namunalarini yuqorida berilgan maqollarning mantiqiy davomi sifatida baholash mumkin. Oldin o‘git berilgan bo‘lsa endi natija ifodalanmoqda. “Oila” tematik guruhiga kiruvchi terminlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning ko‘pi *ona* so‘zi bilan bog‘liq. I.Jabborovning yozishicha: “Maishiy turmushda ayrim urf elementlari ibtidoiy onalik (matriarxat) urug‘iga borib taqaladi. Masalan, o‘zbek oilasida hozirgacha ona tomonidan qarindoshlarning, ayniqsa, tog‘aning roli katta. Bunday holat etnografiyada *avunkulat* nomli oila-nikoh tartiblari bilan bog‘liq bo‘lib, tog‘a-jiyanlar munosabatlariga alohida e’tibor berilishi *matrilokal* tartiblaridandir. Tog‘a jiyanning beshik va sunnat to‘ylaridan to uylanguncha barcha tadbirlariga bosh bo‘lib yordamlashib turishi shart bo‘lgan. Avunkulat va yoshiga qarab guruhlash tartiblarining ayrim elementlari qavmu qarindoshlik atamalarida ham o‘z ifodasini topgan. Masalan, o‘zbeklarda ona va ota tomon qarindoshlar nomi farqlangan: onaning aka-ukalari jiyanga nisbatan *tog‘a* hisoblansa, otasining aka \ukalari *amaki* deb nomlangan. Tog‘aning mavqei amakidan baland bo‘lishi qadimiy avunkulat qoidalarining aks-sadosidir.

Faqat otaga bag‘ishlangan ingliz maqollari soni 5 ta, o‘zbek tilida ko‘proq. Ularning soni 47 tani tashkil etadi. Ingliz paremiyalarining ta’kidlashicha, otaning bola hayotida tutgan o‘rni beqiyos, u barcha inson va narsalardan ustun:

One father is more than a hundred schoolmasters (Bitta ota yuzlab maktab o'qituvchilaridan ustunroqdir). Otaning obro'sining bolaga ta'siri katta: *Ne whose father is judge, goes safe to his trial* (Kimning otasi sudya (hakam) bo'lsa, sudga xotirjam boradi). O'zbek xalq maqollarida ota buyuk, aziz va sharaflı zot, oila qo'rg'oni va javobgari sifatida ta'riflanadi: *Ota rozi – xudo rozi; Ota oldida kek urma, odobingga chek urma; Otang to'ng'iz bo'lsa, boylab boq; Ota ketsa, katta xona buzilar.*

Ingliz naqlarida ham boshqa xalqlar maqollari singari bolalarni o'z otasiga o'xshashligi ifodalanadi: *Like father, like son* (Ota qanday bo'lsa, o'g'il ham shunday). Paremiyalarda bolalarga nisbatan otalik mehr-muhabbati barcha moddiy va ma'naviy narsalardan yuqori turishi haqidagi fikr yangraydi: *No love to a father's* (Ota mehri bilan hech narsa tenglasha olmaydi). Quyidagi o'zbek maqollari "ota qanday bo'lsa, bola shunday bo'ladi" mazmuniga ega: *Ota g'ayratli bo'lsa, bola ibratli bo'lar.* Quyidagi naqlarni ham mazmun mohiyatiga ko'ra ota haqidagi tematik guruhga kiritdik. *Ayg'ir qanday bo'lsa, ot shunday; Ot olsang, otasini surishtir* kabi zoosemik metaforali paremiyalarda otaning o'rni hayvonlar (ayg'ir "erkak ot") obrazi orqali ifodalangan.

Ota va bola chambarchas bog'liq insonlar ekanligini *Ota-bola – bir bog', biri – gul, biri – bog'bon* maqolida kuzatish mumkin. O'zbek sotsiumida qator maqollar otani hurmat qilish shart va zarur ekanligini, chunki ular g'animat va qaytar dunyo borligini unutmaslik kerakligini eslatib turadi: *Otangga ne qilsang, oldingga shu kelar; Birni bersang otangga, mingni olasan bolangdan; Otasi siylamaganni bolasi siylamas.* Qadimda o'zbek oilalarida ota hunarining davomiyligi ta'minlangan, chunki hunarli kishining farzandlari hech qachon och qolmagan. Bu an'ana quyidagi maqollarda o'z ifodasini topgan: *Ota hunari – bolaga meros; Ota kasbi – davlat kasbi.*

Qator “ota” komponentli zarbulmasallarda yaxshilik ezgu ish ekanligi, inson kechirimli bo‘lishi haqida fikrlar yuritiladi: *Otangni o‘ldirganga onangni ber; Otangni o‘ldirganga yaxshilik qil.*

O‘zbek tilida tojik tilidan kirib kelgan “ota” ma’nosidagi *padar* leksemali maqollar ham uchraydi: *Amri padar arshdan a’lo.* Inglizlarda mavhum tushunchali *father* (“ota”) leksemasi komponent sifatida ishtirok etgan maqollar ham kuzatiladi: *The wish is the father of the thought* (Istak – fikrning otasi). Quyidagi o‘zbek maqollarida “ota” leksemasi “biror narsa, ish-harakatning asosi, poydevori, tagzamini” ko‘chma ma’nolariga ega: *Obro‘ning onasi – mehnat, otasi – sayi harakat; Hamma narsaning otasi – mehnat.*

Bobga doir xulosalar

1. O‘zbek madaniyatida ota yoki onaga bo‘lgan munosabat qadriyat darajasida bo‘lib, uni lingvokulturologiyaning predmeti bo‘lgan xalq maqollari misolida dalillash mumkin. “Zero, til olam va odam munosabatini o‘zida aks ettiruvchi mohiyatdir”.

2. Maqollardagi nutqiy antonimiyaning ko‘p kuzatilishining asosiy sabablaridan biri – millat o‘zaro zid bo‘lmagan narsa, belgi-xususiyat, harakatlarni bir-biriga solishtiradi, zidlaydi. Shu tariqa maqollarda nutqiy antonimiya hosil qilinadi. Xalq ota va ona so‘zlarini bir-biriga zidlar ekan, otaning qat’iyati va onaning mehribonligi ko‘proq oppozitsiya belgisi bo‘lib keladi.

3. “Oila” tematik guruhiga kiruvchi terminlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning ko‘pi *ona* so‘zi bilan bog‘liq. I.Jabborovning yozishicha: “Maishiy turmushda ayrim urf elementlari ibtidoiy onalik (matriarxat) urug‘iga borib taqaladi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, harakter va dunyoqarsh shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

2. Maqollarning o'rganilishi o'zbek millatining boy tarixini ko'rsatish bilan birga milliy madaniyatini ham o'zida namoyon qiladi. Maqollar mazmuniy bir butunlik nomi ostida tilshunoslik yutuqlari asosida o'rganilgan. Xalq maqollari faqat badiiy asar matnida emas, publitsistik, memuar asarlar matnida ham, ommabop uslubda ham qo'llanadi.

3. Maqollar ta'lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega, u kishilarni ogahlantiradi, maslahat beradi, tanqid qiladi, mehnatni ulug'laydi, hajv kulgu ostiga olinadi. Maqollar ba'zi jihatlari bilan matallarga o'xshasada, ularning har birini o'z o'rnini, xususiyatiga ega.

4. Har birimiz bolaligimizdan maqollarni eshitib katta bo'lganmiz, ularga kundalik hayotimizda amal qilishga harakat qilganmiz. Maqollar har bir millat hayotida o'z o'rniga ega bo'lib, xalqning turmush tarziga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi. Maqollar yillar davomida tildan tilga o'tib keluvchi komillik, odob, saxiylik, qobillik va jamiki yaxshi amallarga undovchi ezgu fikrlar majmuidir.

5. Ayollar o'z nutqida ko'proq undov so'zlardan foydalangan va bu gaplardan taajublanish, xursandchilik, so'roq ohangi kuchli. Yana ayollar o'z nutqlarida aylanay, qoqindiq, o'rgilay kabi so'zlardan ko'proq foydalanadilar va ular, asosan, urg'uni cho'zib gapiradilar. Xuddi shu vositalar orqali erkaklar nutqi ayollar nutqidan ajralib turadi.

6. Oilada so'zlashuv madaniyati, ya'ni bolaning atrofidagi insonlar qay tarzda gaplashsa, bola ham shu til orqali muloqotda bo'ladi. Bolaning tilini rivojlantirish uchun, ularning nutqini aniq va ravon qilish uchun ota-onalar, o'qituvchilar tomonidan turli xil ishlar amalga oshiriladi. Ular bunday holatlarda,

asosan, bolaga ko‘proq she‘rlar, qiyin so‘zlarni o‘qitishga harakat qiladilar. Bulardan asosiy maqsad yoshlarning nutq madaniyatini o‘stirishdir.

7. “Oila” tematik guruhiga kiruvchi terminlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning ko‘pi *ona* so‘zi bilan bog‘liq. I.Jabborovning yozishicha: “Maishiy turmushda ayrim urf elementlari ibtidoiy onalik (matriarxat) urug‘iga borib taqaladi.

8. Maqollardagi nutqiy antonimiyaning ko‘p kuzatilishining asosiy sabablaridan biri – millat o‘zaro zid bo‘lmagan narsa, belgi-xususiyat, harakatlarni bir-biriga solishtiradi, zidlaydi. Shu tariqa maqollarda nutqiy antonimiya hosil qilinadi. Xalq ota va ona so‘zlarini bir-biriga zidlar ekan, otaning qat‘iyati va onaning mehribonligi ko‘proq oppozitsiya belgisi bo‘lib keladi.

9. O‘zbek madaniyatida ota yoki onaga bo‘lgan munosabat qadriyat darajasida bo‘lib, uni lingvokulturologiyaning predmeti bo‘lgan xalq maqollari misolida dalillash mumkin. “Zero, til olam va odam munosabatini o‘zida aks ettiruvchi mohiyatdir”.

10. Oila munosabatlarida kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, katta avlod vakillarining obro‘yini saqlash va ularni qadrlash, oilaviy an‘analarning, tartib-intizom, odob-axloq qoidalarining uzviyligi va davomiyligi, onaning muqaddasligi, uning oila o‘chog‘ini saqlash va farzandlar tarbiyasidagi o‘ta muhim o‘rni, otaning oila boshlig‘i sifatidagi roli, javobgarligi kabi qator hayotiy tamoyillari o‘z o‘rnini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. **NORMATIV HUQUQIY HUIJATLAR VA METODOLOGIK**

AHAMIYATGA MOLIK NASHRLAR

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қўраимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. Манба: <http://lex.uz/docs/4561730>
6. Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг PQ-185-сон қарори. 2012 йил 10 декабрь.
7. Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-Тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг PQ-2909-сон қарор. 2017 йил 20 апрель.
8. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг PQ- 5-сон қарори. 2018 йил 5 июнь.

9. Олий таълим муассасаларини ўқув адабиётлари билан таъминлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-81-сон қарори. 2018 йил 10 октябрь.

10. Таълим муассасаларида чет тилларини ўқитишнинг сифатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 10-сон қарори. 2017 йил 11 август.

11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий мажлисга мурожаатномаси.

12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси // Правда востока, 23 декабр 2017. – № 248 (28706). – Б. 2.

13. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность.-М. Наука, 1987.

14. Маслова В. Лингвокультурология. – М. Академия, 2001.

15. Народные русские пословице. – Москва, 1985

16. Усмонова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент, 2019

17. Xudoyberganova D. Til Tafakkur Madaniyat . – Toshkent, 2020.

18. Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. – Тошкент, 2019.

19. Хакимова М. Семасиология. Ўқув кўлланма. – Тошкент, 2008. 85-бет

20. Шведова Н.Ю. Краткая русская грамматика. – Москва, 1986.

21. Шорахмедов Ш. Ўзбек халқ мақоллари. –Тошкент, 1989.

22. Бакиров П. Муқаддас она, аёл ва фарзандлар ҳақида ҳадис ва мақоллар // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива, 2017.

23. Бакиров П. Пословицы – энциклопедия народной жизни / П.Бакиров. – Ташкент: Akademnashr, 2018.

24. Бегмурадов И. Узбекско-казахские фольклорные связи: Автореф.дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990.

25. Биктагирова З.А. Концепт "Семья" в паремиологии английского, турецкого и татарского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 2007.
26. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков: Учеб. пособие для пед. ин-тов. – М.: Высш. шк., 1983.
27. Бўриев О. Усмонов М. Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёнлар. – Самарқанд, 2008.
28. Гис Ф., Гис Дж. Брак и семья в Средние века / Пер. с англ. Е.А.Мельниковой. – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2002.
29. Имомзода М.М. Национальная специфика языковой объективации концепта «семья» в лексико-фразеологической и паремиологической системах таджикского и китайского языков: Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2017.
30. Рахмат А. Концепт семья в русской паремике. Лингвокультурологический аспект: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2013.
31. Рузиева С.А. «Оила» тушунчаси ва унинг инглиз ва ўзбек тиллари маданиятида акс этиши: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2020.
32. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. - Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1959.
33. Холмурадова Л.Э. Семейные ценности англичан, отраженные в английской фразеологической картине мира // Вестник Челябинского государственного университета. – 2012.
34. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков):

Дисс. ... док. филол. наук. – Тошкент, 2007.

- 35 Зимовец Н.В. К вопросу о происхождении английских пословиц и поговорок / Актуальные вопросы переводоведения и практики перевода. – Россия. Г. Белгород. 2013.
- 36 Сирот И.М. Русские пословицы библейского происхождения. – Брюссель: Жизнь с Богом, 1985.
- 36 Азизхонова Л. “Навоий” романидаги фразеологизмларнинг рус тилига таржимаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. №3. – Б. 54–57;
- 37 Аскарлов С. А.Қодирий ижодида фольклорнинг баъзи масалалари Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. №1. – Б. 19–22;
- 38 Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. №4. – Б. 52–55;
- 39 Тўйчиев М. “Шинелли йиллар” романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши / Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДПИ асарлари. – Самарқанд, 1971. – Б. 84–87;
- 40 Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – 176 б.
- 41 Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, 1964. – 18 с.;
- 42 Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1977. – 48 с.;
- 43 Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 18 с.;
- 44 Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2002. – 24 б.;

- 45 Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... док. филол. наук. – Тошкент, 2007. – 286 с

II LUG ‘ATLAR

- 46 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. – М.: Русский язык, 1981.
- 47 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 2-том. – М.: Русский язык, 1981.
- 48 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, бешинчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2008.

III INTERNET MANBALARI

1. www.filology.ru
2. www.ru.wikipedia